

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

“QADIMGI TURKIY TIL ” FANIDAN

MA'RUZALAR MATNI

QO'QON -2008

Ushbu ma'ruzalar matni 5141100 – "O'zbek tili va adabiyoti" ta'lim yo'nalishi kunduzgi bo'lim 2-bosqich talabalariga mo'ljallangan. U amaldagi ishchi o'quv dasturi va taqvimiy rejaga muvofiq mavzular, ularning rejalari, mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati, ma'ruza matni va mavzu bo'yicha savol va topshiriqlarni o'z ichiga qamrab olgan. Ishchi o'quv rejaga ko'ra, "Qadimgi turkiy til" faniga 3 - semestrda ma'ruza mashg'ulotlariga 12 soat ajratilgan.

Ushbu ma'ruzalar matni o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2008 yil 27 -avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokama etildi va tasdiqlandi.

Tuzuvchilar: dos. I.P. Po'latov, o'qituvchi M. Ergashova, o'qituvchi H. Ahmedova

Taqrizchi: SH. Akramov, kafedra mudiri, f.f.n.

1-mavzu: QADIMGI TURKIY TIL KURSIGA KIRISH

Reja:

1. Qadimgi turkiy til kursining maqsad va vazifalari.
2. Turkiy tillar tarixini davrlashtirish.
3. Qadimgi turkiy tilning o'rganilishi.
4. O'rxun-Enasoy yozuvi yodgorliklari.
5. Qadimgi uyg'ur yozuvi yodgorliklari.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. T., 1982.
2. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. T., 1994.
3. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. – T., 1989.
4. Sodiqov Q. Uyg'ur yozuvi tarixidan. – T, 1997.
5. Nasilov V.M. Drevneuygurskiy yazyk. – M., 1963.
6. Kononov A.N. Grammatika yazyka tyurkskix runicheskix pamyatnikov. L., 1980.
7. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti Mongolii i Kirgizii. M.-L., 1959.
8. Nasilov V.M. Yazyk orxono-yeneseyskix pamyatnikov. – M., 1960.

O'zbek tili tarixi mustaqil fan sohasi sifatida o'zbek tilining mohiyati, uning tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari to'g'risidagi fandir. Fanning asosiy maqsadi va vazifasi o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot yo'lini tahlil va tadqiq etishdan iborat. Qadimgi turkiy til mustaqil fan sohasi sifatida o'zbek tilining mohiyati, uning tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari to'g'risidagi fandir. Fanning asosiy maqsadi va vazifasi o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot yo'lini tahlil va tadqiq etishdan iborat. O'zbek tili tarixi fani to'rt bo'limni o'z ichiga oladi: Qadimgi turkiy til, Eski o'zbek tili va yozuvi, O'zbek tilining tarixiy grammatikasi, O'zbek adabiy tili tarixi. Qadimgi turkiy til kursida 6-10 asrlarda yaratilgan va bizgacha etib kelgan turli yozma manbalarning lisoniy xususiyatlari, ularning o'rganilish tarixi, grafikasi kabi masalalar o'rganiladi. Qadimgi turkiy yozuv manbalari asosan Turk xoqonligi, Uyg'ur xoqonligi va Qirg'iz xoqonligi davrlariga oiddir. Ularning orasida Turk xoqonligi davri manbalari eng salmoqli va hajm jihatidan yiriklari sanaladi. Qadimgi Xitoy manbalarida Turk xoqonligi Tukyū nomi qayd etilgan. Ma'lumki, V—VI asrlarga kelib, O'rta Osiyoda quldorlik tuzumi yemirilib, uning o'rnini feodalizm munosabatlariga asoslangan jamiyat egalladi. Qadimgi Xunnu, Kushan (I—IV asrlar), eftalit—VI asrlar) davlatlari o'rnida 552 yilda yangi qudratli feodal davlat—Turk imperiyasi (yoki Turk xoqonligi) vujudga keldi. Uning xududida Oltoy, Ettisuv, SHarqiy Turkiston, Mo'g'iliston, Markaziy va O'rta Osiyo kabi juda katta o'lkalar birlashgan edi, CHegaralar Koreya va Qora dengiz, Ural—Selenga va O'rxun daryolari edi.

Akademik Bartol'd Tukyū davlatini mo'g'ul davrigacha bo'lgan barcha Ko'chmanchi imperiyalarning eng qudratlisi edi, deb ta'rif beradi. Uning tarkibida bulg'or, xazar, avar, mo'g'ul, turgesh, qarluk, tatabi, chigil, o'g'uz, qirgiz, uyg'ur, so'g'd va bosho'a ko'plab qabila va elatlar mavjud edi. Ularning ayrimlari kamonchi bo'lsa, ayrimlari (asosan shaharlarda) o'troq hayot kechirib, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanar edi. Birinchi marta temir ishlab chiqarish va undan turli xarbiy

qurollar tayyorlash ham dastlab shu mamlakatda yo'lga qo'yilgan bo'lib, to'qimachilik, keramika va savdo-sotiq ancha rivojlangan edi. Mamlakatning oliy hukmdori hoqon bo'lib, turli viloyat va o'lkalarda shad, shadapit, baglar rahbarlik qilar edilar. Oddiy fuqarolar — xalq “budun” deb atalgan. Ana shu juda keng hududni birlashtirgan ulkan mamlakat Turon, ayrim forsiy manbalarda Turonzamin shevalar xususiyatlariga asoslanadilar.

Kishilik jamiyati o'z boshidan bir qancha tarixiy bosqichlarni bosib o'tdi. Bunda kishilarning turli sotsial uyushmalari, urug', qabila, qabila ittifoqi, elat va millat shakllandi hamda taraqqiy etib keldi. N.A.Baskakov turkiy tillar tarixini olti davrga bo'ladi.

1. Oltoy davri (eramizning III asrigacha).
2. Xunnu davri (eramizning V asrigacha).
3. Qadimgi turk davri (V—X asrlar).
4. O'rta turk davri (X —XV asrlar).
5. Yangi turk davri (XV —XX asrlar).
6. Eng yangi davr (hozirgi turkiy tillar).

Oltoy davrining qat'iy xronologik chegarasi belgilangan emas. Bu davrda turkiy tillar mo'g'ul va tungus — manjur tillaridan ajralgan emas edi. Turkiy tillarning mo'g'ul va tungus — manjur tillar bilan birligi oltoy tillar oilasini tashkil qilgan. Bu davrga oid birorta yozma manba bizga qadar yetib kelgan emas. Faqat uning ayrim xususiyatlari qiyosiy — tarixiy metod asosida rekonstruksiya qilinadi. Oltoy tillari dastlab turk— mo'g'ul va tungus — manjur kabi ikki guruhga ajraldi. Keyinchalik esa turk va mo'g'ul tillari ajralib, mustaqil taraqqiy yo'liga o'tganlar.

Xun imperiyasi eramizdan avvalgi III asrdan to eramizning V asrigacha davom etdi. Uning territoriyasi Markaziy va SHarqiy Osiyoga joylashgan edi. U davrlarda turk, mo'g'ul, manjur, tungus va boshqa qabila va qabilalar ittifoqdosh bo'lib yashar edi. Eramizning I asrida Xun imperiyasi 2 qismga: g'arbiy va sharqiy qismlarga bo'lindi. Bizda Xun davriga oid yozma manbalar yo'q yoki hozirgacha noma'lum. Faqat ayrim so'zlarning xitoycha transkripsiyasi, atoqli otlar va titul nomlarigina mavjud. Lekin hozirgi turkiy — mo'g'ul, tungus — manjur tillarida bir qator umumiy tomonlar borki, bular o'sha davr tiliga, xun davri tiliga xos xususiyatlardir. Masalan, hozirgi oltoy tilida buga-buqa, mo'g'ul tilida buxa, manjur tilida buxu, o'zbek tilida buqa, oltoy tilida tala (tomon, cho'l), mo'g'ul tilida tala (vodiy), manjur tilida tala (cho'l va vodiy), oltoy tilida quduq, mo'g'ul tilida xudag, o'zbek tilida quduq, oltoycha bulang, mo'g'ulcha bulun, o'zbek tilida bulung (burchak), oltoy tilida dval, mo'g'ul tilida жыл, o'zbek tilida yil, oltoy qadun, mo'g'ulcha qatun, uzbek tilida xotin, oltoy tilida qara, mo'g'ulcha qara, o'zbek tilida qora va b.

O'zbek olimlari ham umumturkiy tillar tarixi qatorida alohida o'zbek adabiy tili tarixini ham davrlashtirganlar. F.Abduraxmonov, SH.SHukurovlar o'zbek adabiy tili tarixi quyidagi davrlarga ajratganlar:

1. Eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha bo'lgan davr).
2. Qadimgi turkiy til (VII asrdan XI asrgacha),
3. Eski turkiy til (XI asrdan XIII asrgacha).
4. Eski o'zbek adabiy tili (XIV asrdan XIX asrgacha).
5. Yangi o'zbek adabiy tili (XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 30 — yillarigacha).

6. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili.

Umumxaqq o'zbek tilining tarixi oltoy davridan boshlansa, o'zbek adabiy tilining tarixi yozma yodgorliklari ma'lum bo'lgan qadimgi turk davridan boshlanadi. Bu davr adabiy tili va yozma obidalar barcha turkiy xalqlarga taalluqli.

Qadimgi turk yozma yodgorliklarga turkiy run (urxun — enasoy), uyg'ur va qisman moniy (yoki monaviy), braxman, surd va suraniy yozuvlarida yozilgan obidalar kiradi. Run va uyg'ur yozuvlari turkiy xalqlarga xos yozuvdir. Toshga o'yib yozilgan run yozuvi yodgorliklari dastlab Yenisey havzasida, so'ngra XIX asr oxirida Mo'g'ulistonning O'rxun daryosi bo'yida topilgan bu yozuvda dastlab daniyalik tilshunos S.Tomsen va rus turkologi V.Radlov aniqladi. Hozirgi paytgacha o'rxun yozuvida yozilgan ko'plab tosh, idish, asbob, tangalar, kitob, kitob varaqlari va ayrim qog'ozlar ham ma'lum. Talas va Yenisey obidalaridagi yozuv O'rxun obidalariga nisbatan harflar shakliy variantlarining ko'pligi bilan farq qiladi.

Uyg'ur yozuvida yozilgan asarlarning hammasi ham qadimgi turk davriga oid emas, chunki bu yozuv XVIII asrgacha qo'llandi. Uyg'ur yozuvini Mahmud Qoshg'ariy "Turk yozuvi" deb ataydi hamda bu yozuvda o'n sakkizta harf borligini va turkiy tillarda mavjud bo'lgan yettita tovush (p, j (portlovchi), J (sirgaluvchi), f, g, g, ng) uchun maxsus xarflar yo'qligini, unlilarni esa arab tilidagidek harakatlar bilan emas, harflar bilan ifodalanishini aytib o'tadi. Mahmud Qoshg'ariy turk (uyg'ur) harflarining alohida va qo'shib yozilgandagi ko'rinishlarini ham bergan. Turkologlar tomonidan qadimgi turk yodnomalari tilidagi lahjaviy farqlar sohasida ham ba'zi fikrlar bayon qilingan. Bu to'g'rida Afon Gabenning n—li va i — li lahjalar haqida bildirgan fikri muhimdir! N—,li lahjada so'z o'rtasi va oxirida n tovushi kelgan tovushi so'zlarda y — li lahjada y tovushi keladi anug ayig (evuz) (kambashl) kabi n li lahjada asosan moniy yozuvdagi yodgorliklar yaratilgan. O'zbek tiliga -y li lahja n li lahjaga nisbatan ko'proq aloqadordir.

Qadimgi turk yodnomalarning yirik namunalari adabiy til nuqtai nazaridan, qaralsa, ularning bir nechta turkiy laxjalarni o'z ichiga olgan adabiy tilda yozilgani ma'lum bo'ladi. Bu yozma adabiy til ko'pgina turkiy qabilalar uchun umumiy bo'lgan og'zaki adabiy til asosida vujudga kelgan. Mana shu adabiy til qadimgi turkiy til deb ataladi. XI asrda bu adabiy til o'rnini shu til asosida vujudga kelgan va unga nisbatan juda rivojlangan eski turkiy til bosadi.

"Qadimgi turkiy tilning" run yozuvida bitilgan yirik namunalari quyidagilardir:

1.Kul tigin (SHaxzoda Kul) bitiktoshi. Bu bitigtogi Estarish o'g'li Bilga xoqonning inisi Kul tagin sharafiga qo'yilgan. Kul tagin 731 yili 27 fevralda 47 vafot kiladi. Bibittoshi 1889 yilda N.M.YAdrindov Mo'g'ulistonning Kusho Kaydam vodiysidagi Kukshun o'rxun daryosi qirg'og'ida topgan. Kalinligi 41 sm, balandligi 3 m 15 sm.

2.Bilga xoqon bitigtoshi. Eltarish xokonning o'g'li Bilga xoqon — Mutilon marafiga 735 yilda o'rnatilgan. Kul tagin bitigtoshlari 1 km janubi Fap6ra o'rnatilgan. Buyi — 3 m 45 sm, eni — 1m 74 sm, qalinligi — 72 sm. Z.To'nyuquq bitigtoshi. Ulanbatordan 66 km janubi Farbdagi Bani Koxbo manzilida topilgan. 62 satr. 2 ta turt kirrali ustuniga yozilgan. 1897 yilda E.Klemens topgan.

4.Ungin (Ongin) bitigtoshi. Kapagan va Bilga hoqonlarning sarkardasi Alp Eletmish sharafiga qo'yilgan. 731 yilda o'lgan, Ungin vodiysida topilgan;

5.Kuli chur bitigtoshi. Bitigtoshni 1912 yilda pol'shalik professor V.Kotvich Mo'g'ulistonning Ulan Bator yaqinidagi Ixe Xushotu manzilidan topgan va uning tekstini

A.Samoylovich bilan birgalikda "Ruchnik urientalichni" (SHarkshunoslik yilnomasi) ning 4 —jildida (1928) nashr etgan. Kuli chur 731 yilda xalok bo'lgan deb tahmin kilinadi.

6.Muyun chur. bitigtoshi. Buni fin olimi G.I. Ramstedt 1909 yilda SHimoliy Mo'g'ulistonda Selenga daryosi va SHineusu kuliga yakin erda topgan hamda bitigni va uning tarjimasini Fin —ugor madaniyati jurnali" ning 30 —jild, 3 —bo'limida (Xel'sinki, 1913), so'ngra rus geografiyasi jamiyati asoslarining 15 tomida (SPB, 1914)) nashr kilgan.

7.Irq bitig (folnoma) qo'lyozmasini A.Steyn Xitoydagi Dunxuan yakunidagi "Ming budda g'ori" deb ataluvchi ibodatxona xizmatchisidan olib Londonga keltirgan. Buni dastlab V.Tomsen "Ze jurnal of Ruyal Aziatik sistaiti" (Qirol Osiyo jamiyatining jurnali) ning 1912 yil yanvar sonida nashr etgan, so'ngra bu asarni N.Orkun S.E.Malov nashr kilgan.

Qadimgi turkiy tilning taxminan V — X asrlarda vujudga kelgan uyg'ur yozuvidagi yirik va asosiy namunalari quyidagilardir:

1 .Xuastuanift ("Monaviylarning tavbanomasi") Buning uchta qo'lyozma nusxasi bor. Turfan yaqinidagi. Ostona degan joydan keltirilgan Leningrad nusxasi uyg'ur yozuvida yozilgan. Turfandan topilgan Berlin nusxasi va "Ming budda g'ori" dan topilgan London nusxasi moniy yozuvida yozilgan.

2.SHaxzodalar Kalyanamkara va. Papamkara haqida qissa qo'lyozma Parij milliy kutubxonasida bo'lib, uning transliterasiya va fransuzcha tarjimasini 1914-yilda P.Pello nashr etgan.

Z.Oltun yoruq. Bu asar asli sanskritcha bo'lgan "suvernaprabxasa"ning turkiy tarjimasidir. Bu tarjima X asrda Beshbaliqda yashagan Sinqu Seli Tutung qalamiga mansub. Unga yaqin qo'lyozmasi mavjud, Mukammal nusxasi 1687 yilda ko'chirilgan. Leningrad SHarqshunoslik instituti qo'lyozmalar bo'limida saqlanadi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. O'zbek tili tarixi fani nimani o'rganadi?
2. Qadimgi turkiy til kursida nimalar o'rganiladi?
3. Turkiy tillar tarixi qaysi davrlarga bo'linadi?
4. O'zbek adabiy tili tarixi davrlari qaysilar?
5. O'zbek adabiy tili tarixini kimlar davrlashtirgan?
6. O'rxun-Enasoy yodgorliklarini sanang.
7. Uyg'ur yozuv yodgorliklarini sanang.

Tayanch iboralar:

1. O'zbek tili tarixi. 2. O'zbek adabiy tili tarixi. 3. Qadimgi turkiy til. 4. Til tarixini davrlashtirish. 5. O'rxun-Enasoy yodgorliklari. 6. Uyg'ur yozuv yodgorliklari.

2-mavzu: QADIMGI TURKIY TIL YOZUV TIZIMLARI

Reja:

1. Turk-run yozuvi
2. Qadimgi uyg'ur yozuvi
3. Turkiy xalqlar qo'llagan boshqa yozuvlar

Adabiyotlar:

9. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. T., 1982.
10. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. T., 1994.
11. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. — T., 1989.
12. Sodiqov Q. Uyg'ur yozuvi tarixidan. — T, 1997.

13.Nasilov V.M. Drevneuygurskiy yazыk. – M., 1963.

14.Kononov A.N. Grammatika yazыka tyurkskix runicheskix pamyatnikov. L., 1980.

15.Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti Mongolii i Kirgizii. M.-L., 1959.

16.Nasilov V.M. YAзыk orxono-yeneseyskix pamyatnikov. – M., 1960.

Hozirgacha fanga ma'lum qadimgi turkiy til manbalari turk-run, qadimgi uyg'ur, so'g'd, moniy, braxmiy, suryoniy kabi yozuvlarda yozilgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, turkiy xalqlar qadimdan o'z yozuviga ega bo'lganlar. 245-250 yillarda Kambodjaga safar qilgan Xitoy elchisining qaydlarida shunday deyiladi: «Ular o'z kitoblariga ega bo'lib, ularni arxivda saqlaydi. Ularning yozuvi xun yozuviga o'xshaydi». Hozirgi tilshunos va tarixchi olimlar xunlarni til jihatidan tungus yoki mo'g'ul emas, balki turk deb ko'rsatadilar. Boshqa bir Xitoy tarixchisi CHjoushu solnomasida «Tukeyularning (ya'ni, turklarning) yozuvi xun xalqining (ya'ni, sug'dlarning) harflariga o'xshab ketadi» deb yoziladi. VI asrda yashagan suryoniy solnomanavis Zaxariya Ritor ham xunlarning (turklarning) yozuvi haqida xabar beradi. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» asarida (XI asr) uyg'ur yozuvidan tashqari yana bir turkiy yozuv haqida ma'lumot beradi: «Ular (uyg'urlar) yozuv uchun 24 harfdan iborat bo'lgan turkcha (qadimgi uyg'ur) alifbodan foydalanadilar. Bundan tashqari uyg'ur va xitoyliklarning yana bir yozuv turi bor. Ish qog'ozlarini ushbu yozuv bilan yozadilar. Bu yozuvni musulmon bo'lmagan uyg'urlar va xitoyliklardan boshqa hech kim o'qiy olmaydi». Bizningcha, Koshg'ariy bu o'rinda turk-run yozuviga ishora qilmoqda. Faxriddin Muborakshoh Marvarudiy (XII asr) ham «to'quz-o'g'uz yozuvi» nomi bilan turk-run yozuvi haqida ma'lumot beradi. Fors tarixchi va sayyohi Aloiddin Atomalik Juvayniy o'zining «Tarixi jahongushiy» asarida (1260 yilda yozib tugatilgan) qadimgi uyg'ur xoqonligining poytaxti O'rdubaliq shahri xarobalarini tasvirlar ekan, yozuvlari o'yib yozilgan kesmatoshlar ko'rganini va ularni hech kim o'qiy olmasligini yozadi. Mashhur filolog Ibn Arabshoh (1389-1450) «Ajoyibul-maqdur fi navoyibi Taymur» nomli asarida Xitoyda turklarning «dulbarjin» degan yozuvini ko'rganini va qirq bitta harfdan iborat ekanini yozadi. Turkologlarning fikricha, yuqoridagi barcha faktik ma'lumotlarda turk-run yozuvi haqida gap ketgan.

Turk-run yozuvi ilmiy adabiyotlarda «O'rxun yozuvi», «O'rxun-Enasoy yozuvi», «Enasoy-O'rxun yozuvi», «Sibir yozuvi» kabi turli nomlar bilan atab kelinadi. Bu yozuvning kelib chiqishini A.A.SHifner, H.Vamberi kabi ba'zi olimlar turkiy tamg'alarga bog'laydi. Aksar turkologlar turk-run yozuvining kelib chiqishini oromiy yozuvi bilan bog'laydilar. Bunda O'rta Osiyodagi eroniy xalqlar qo'llagan hamda asli oromiy alifbosi asosida shakllangan pahlaviy, xorazm va sug'd yozuvlarining turkiy xalqlar tomonidan o'zlashtirilishi bilan turk-run yozuvining vujudga kelgani ta'kidlanadi. Biroq turk-run yozuvining shakllangan davri va o'rni haqida hozirgacha aniq fikr aytilmagan. Mavjud manbalar asosida A.N.Kononov turk-run yozuvi taraqqiyotining uch bosqichini ajratadi:

- 1) arxaik davri (Yettisuv yodgorliklari, VI-VII asrlar; Enasoy yodgorliklari, VI-IX asrlar.);
- 2) klassik davri (ikkinchi Turk xoqonligi yodgorliklari, VIII asr 1-yarmi);
- 3) so'nggi davr (Uyg'ur xoqonligi davri yodgorliklari, VIII asr 2-yarmi – IX asr; SHarqiy Turkiston yodgorliklari, IX asr).

Turk-run yozuvidagi yodgorliklar geografik jihatdan bir necha arealga ajratiladi. Ular o'rtasida oz bo'lsa-da areallararo juz'iy grafik, fonetik va grammatik xususiyliklar ham uchraydi.

1. O'rxun yodgorliklari: Ungin yodgorligi (N.M.YAdrinsev, 1891), Kul-tegin yodgorligi (N.M.YAdrinsev, 1891), Mo'g'ilon-xon yodgorligi (N.M.YAdrinsev, 1891), To'nyuquq yodgorligi (E.N.Klemens, 1897), Kuli-chur yodgorligi (V.L.Kotvich, 1912), Mo'yun-chur yodgorligi (G.I.Ramstedt, 1909), Suji yodgorligi (G.I.Ramstedt, 1913) va b.

2. Enasoy yodgorliklari: Enasoy daryosi havzasi, Tuva, Xakasiya va Minusinskdan topilgan 85 ta yozuv namunalari. Ular yozilgan davrni olimlar har xil ko'rsatadi. V.V.Radlov VII-VIII, P.M.Melioranskiy VI-VII, S.E.Malov V-VI, L.R.Qizlasov IX-X, A.N.Kononov IX-X asrlarda yozilganini ta'kidlaydi.

3. SHarqiy Turkiston yodgorliklari: Turfondagi qadimgi bino devorlarida to'rtta yozuv namunasi, Miron va Dunxuandan topilgan qog'ozga yozilgan bir necha matn («Irq bitigi» - «Folnoma» ham shular jumlasida).

4. Talas yodgorliklari: Qirg'izistonning Talas vodiysidan topilgan o'n ikkita yozuv namunasi.

5. Farg'ona yodgorliklari: Koshin va metalga yozilgan qisqa yozuv namunalari.

Turk-run yozuvining 40 dan ortiq shakllari bor. Alifboda unlilar soni 4 ta, Enasoy variantida 5 ta. Aksar undoshlarning alohida xususiyati shundaki, ular qattiq va yumshoq (velyar va palatal) shakllarga ega bo'lgan. Bulardan faqat p, ch, z, sh, m undoshlarini ifodalovchi harflardagina bunday holat kuzatilmaydi. Yana bir jihati, ba'zi harflar bir necha tovushlar birikmasini ham ifodalaganlar Masalan, ny, ng, nt, nch, lt, rt, ik, ki, uk, ku, iq, qi, uq, qu, o'k, o'q kabilar. Yozuvning grafik xususiyatlari shuki, harflar o'ngdan chapga qarab yozilgan. Ular o'zaro ulanmaydi. Manbalarining yozilish hududi va davriga qarab harflarning grafik variantlashuvi juda kuchli. Masalan, palatal b, velyar t, m, palatal n, q, uk, g', ng, nch, nt, z, velyar s kabi harflarning ko'plab shakliy variantlari mavjud.

Qadimgi uyg'ur yozuvi kelib chiqishi jihatidan fonografik yozuv bo'lgan oromiy yozuvi bilan bog'lanadi. Uyg'ur yozuvi eramizning 5-6 asrlarida qadimgi so'g'd yozuvi asosida shakllangan. M.Koshg'ariy va A.Navoiylar bu yozuvni turkcha xat deb ataganlar. 13 asr fors shoiri Puri bahoiiy uyg'ur xati deydi. Ibn Arabshoh ham uyg'ur xati, ham mo'g'ul xati deb nomlagan. Bu yozuvda bitilgan aksar manbalar qadimgi turkiy til davriga oiddir. Qisman esa arab yozuvi qo'llangan davrda ham parallel ravishda iste'molda bo'lgan. Bu yozuvdagi manbalar tematik jihatdan rang-barang bo'lgan. Adabiy, diniy, falsafiy, tarixiy, ilmiy, huquqiy mavzulardagi manbalar saqlanib qolgan. Bu yozuv O'rta Osiyoda 15 asrgacha qo'llangan bo'lsa, budda diniga e'tiqod qilgan turkiy halqlar orasida 18 asrgacha iste'molda bo'lgan. Qadimgi uyg'ur xatida qadimgi turkiy til davridan keyingi davrlarda Qutadg'u bilig, Hibatul haqoyiq, Muhabbatnoma, Tazkiratul avliyo, Me'rojnomasi kabi ko'plab asarlar ham ko'chirilgan.

Mazkur alifboda 18 harf belgi bo'lgan. M.Koshg'ariy bu harflarni o'zak harflar nomlaydi. Hamda yana 7 ta tovush uchun alohida harflar yasashini ham uqtiradi. Bularni esa tarmoq harflar deb nomlaydi. Qadimgi uyg'ur yozuvi grafik xususiyatlariga ko'ra arab yozuviga o'xshab ketadi. Harflar o'ngdan chapga qarab, o'zaro ulanib yoziladi. Harflarning turli pozision shakllari mavjud. M.Koshg'ariyda keltirilishicha, qadimgi uyg'ur alifbosi quyidagicha bo'lgan: 1.alif-a. 2.YO-y,i,e. 3.Vov-o',u. 4.Vo-v,f. 5.Ba-b,p. 6.Ta-t. 7.Xa-x,g'. 8.Qa-q. 9.Sa-s. 10.SHa-sh. 11.Ka-k. 12.CHa-ch,j. 13.Ma-m. 14.La-l. 15.Ra-r. 16.Za-z,j (sirg'aluvchi). 17.Zol-dz. 18.Na-n.

Qadimgi turkiy xalqlar turk-run, qadimgi uyg'ur yozuv tizimlaridan tashqari qator boshqa alifbolardan ham foydalangan. Masalan, qadimgi moniy yoki monixey yozuv shular jumlasidandir. Mazkur yozuvda bitilgan eng yirik asar Xuastuanif sanaladi. Bu asar adabiyotlarda Moniylarning tavbanomasi deb ham yuritiladi. Moniy alifbosi qadimgi uyg'ur alifbosiga qarindosh yozuv sanaladi. Ayrim grafik xususiyatlar umumiylik kasb etadi.

Qadimgi turkiy xalqlar qo'llagan yana bir yozuv braxmiy yozuvi bo'lgan. Mazkur alifbodan asosan budda diniga e'tiqod qilgan qadimgi turkiy xalqlar foydalangan. Bu alifbo murakkab strukturaga ega bulgan. Murakkablik shundaki, harflar o'zaro tutashtirilganda grafik jihatdan keskin o'zgarishlarga yo'liqadi. Bu alifboning yana bir alohida xususiyati, unli tovushlarni qator va qisqalik-cho'ziqlik belgilari bilan farqlagan. Vaholanki, bunday mukammallikni boshqa yozuvlarda bu davrda ko'rmaymiz. Masalan, old qator a, i, o' va u, orqa qator a, e, i, o' va u, cho'ziq a, e, o' va u.

Qadimgi turkiy xalqlar shuningdek, so'g'd, suryoniy kabi yozuvlardan ham foydalanganlar lekin ularda yozilgan manbalar kam saqlanib qolgan. Mazkur yozuv tizimlari ham oromiy yozuvi asosida shakllangani uchun ularning grafik xususiyatlari uyg'ur va moniy yozuvlariga o'xshash bo'lgan.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Turkiy xalqlar tarixda qanday yozuv turlaridan foydalangan.
2. Turk-run yozuvining xususiyatlarini ayting.
3. Qadimgi uyg'ur yozuvining xususiyatlarini ayting.

Tayanch iboralar:

1. O'rxun-Enasoy yozuvi (turk-run yozuvi)
2. Qadimgi uyg'ur yozuvi
3. Braxmiy yozuvi
4. So'g'd yozuvi.
5. Moniy yozuvi.

3-mavzu: QADIMGI TURKIY TIL FONETIKASI

Reja:

1. Qadimgi turkiy tilning fonetik xususiyatlari
2. Qadimgi turkiy til dialektlari
3. Qadimgi turkiy til vokalizmi
4. Qadimgi turkiy til konsonantizmi
5. Fonetik hodisalar

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. T., 1982.
2. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. – T., 1989.
3. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. T., 1994.
4. Ne'matov H. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. T., 1992.
5. To'ychiboev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – T., O'qituvchi. 1996.
6. Kononov A.N. Grammatika yazыka tyurkskix runicheskix pamyatnikov VII-IX vv.-L., 1980.
7. Nasilov V.M. YАзык orxono-yyeneseyskix pamyatnikov. – M., 1960.
8. Nasilov V.M. Drevneuygurskiy yazыk. – M., 1963.

9. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti Mongolii i Kirgizii. M.-L., 1959.
10. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. M.-L., 1951.

Tilimiz tarixining qadimgi davr xususiyatlarini o'rganishni amaliy ravishda boshlab bergan Mahmud Koshg'ariy qadimgi va eski turkiy til fonetik xususiyatlarini ham atroflicha yoritib bergan. M.Koshg'ariy o'z davri turkiy til shevalarini solishtirar ekan, ular o'rtasidagi fonetik differensiasiyaga (farqlanishga, ajralishga) e'tibor qiladi. SHarqiy Turkistondagi Qarluq qabilalari ittifoqiga kirgan chigillar haqida shunday misollar keltiradi: ayaq – azax, qarin to'ydi – xarin to'zdi. Bunda Y-Z tovushlari mosligini ta'kidlamoqda. SHuningdek, M.Koshg'ariy o'z davri unlilarini qadimgi turkiy tilning barcha manbalariga xos bo'lganidek, qator, tor-kenglik, lablanish-lablanmaslik belgilariga ko'ra farqlagan. Keyingi davrda qadimgi turkiy til davri yozuv yodgorliklarining fonetik xususiyatlarini o'rganish, barcha tomonlarida bo'lganidek, V.Tomsen, V.V.Radlov, H.Vamberi P.M.Melioranskiy, V.Bang, kabi olimlar tarafidan yangi bosqichda davom ettirildi. Qadimgi turkiy til manbalarining fonetik-grammatik xususiyatlarini o'rganishda A.M.SHcherbak, V.G.Kondratev, A.S.Amanjолоv, N.K.Antonov, G.Aydarov, D.M.Nasilov, A.Gaben, H.N.Orkun, A.J.Emre, T.Tekin, o'zbek olimlaridan G'.Abdurahmonov, A.Rustamov, E.Fozilov kabilarning katta ilmiy xizmatlari bor.

Qadimgi turkiy til davrida turkiy xalqlar tarqalish areali taxminan shunday bo'lgan: 1. O'rxun turklari Mo'g'ilistonda; 2. Uyg'urlar Selenga daryosi havzasida; 3. Qirg'izlar Enasoy daryosi havzasida; 4. Quriqanlar Baykal ko'li atrofida; 5. O'g'uz, qipchoqlar Qozog'iston va O'rta Osiyoda; 6. Bulg'or, xazar va avarlar Volga daryosi va Qora dengiz atroflarida yashaganlar.

Qadimgi turkiy til fonetik xususiyatlari haqida gap ketganda, avvalo, bu davrga kelib differensiasiyalangan mazkur turkiy xalqlar orasidagi ayrim tovush mosliklari to'g'risida gapiriladi. Hamda QTT yodgorliklari asosan D undoshi xususiyatiga ega bo'lgani aytiladi. Turkiy tillar tarixiy fonetik taraqqiyotini ham o'zida aks ettirgan undoshlar mosligini quyida ko'ramiz.

Asos o'rtasi va oxirida R-D/T-Z/S-Y undoshlari mosligi. Masalan: adaq (O'EYO, hozirgi tuva tili), ataq (hozirgi yoqut tili), azaq (qadimgi chigil, hozirgi xakas va shor tillari), ayaq (hozirgi g'arbiy turkiy tillar), ura (qadimgi bulg'or, hozirgi chuvash tillari).

N.A.Baskakovga ko'ra, turkiy tillarda R xususiyati oltoy davriga oid. T/D, S/Z/DZ xususiyatlari xunn davrida shakllangan. Y xususiyati esa o'rta turk davrida vujudga kelgan. YA'ni, R-D/T-S/Z/DZ-Y ketmaketligida rivojlangan.

A.M.SHcherbak fikricha, turkiy tillardagi Y, T, Z, R xususiyatlar yagona umumiy DZ tovushidan bir davrda teng shakllangan.

B.A.Serebrennikov esa umumiy DZ tovushidan D, Z, Dy tovushlari rivojlanadi. So'ngra D-T, Z-R, Dy-Y o'tishi sodir bo'lgan deydi.

Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklarining o'zaro fonetik-grammatik jihatlardan farqlanishi asosida ularni ayrim dialektlarga ajratish zarurati paydo bo'ldi. V.V.Radlov QTTni uchta dialektga ajratadi: 1) shimoliy dialekt, 2) janubiy dialekt, 3) aralash dialekt.

SHimoliy dialekt turk-run yozuvi yodgorliklari uchun xos ekanini; janubiy dialekt uyg'ur yozuvida bitilgan Suji, Selenga va Turfon yodgorliklari uchun xos ekanini; aralash dialekt uchun esa moniy yozuvidagi turkiy yodgorliklar, uyg'ur yozuvidagi moniy dini yodgorliklari, «Qutadg'u bilig» asarining arab yozuvidagi Qohira nusxasini, uyg'ur

yozuvida bitilgan budda dini yodgorliklari «Oltin yorug», «Tishastvustik», «Kuan-shi-im-Pusar» kabi manbalar tili xos ekanini aytadi.

A. Gabenga ko'ra QTT dialektlari quyidagicha: 1) y – dialekti (uyg'ur yozuvidagi buddaviylik va monaviylik matnlari), 2) bitiktoshlar dialekti (O'EYO), 3) n – dialekti (moniy yozuvi yodgorliklari), 4) braxmiy yozuvi yodgorliklari dialekti.

1) ayig', suv, 2) anyig', sub 3) anig', -lag' (-lig'), -ap (-ip), 4) keyingi bo'g'inlarda lablangan keng unlilar qo'llanishi bor: olorop, konglomnong.

Qadimgi turkiy tilda sakkizta unli fonema mavjud bo'lib, ular bir biridan qatori, tor-kengligi, lablanish-lablanmasligiga ko'ra farq kiladi. Bulardan a, ы, o, u, orqa qator va a, i, o, u old qator unlilaridir. Keng unlilar a, a, o, o, tor unlilar ы, i, u, u.

Lablanmagan unlilar a, e, ы, i, lablangan unlilar o, o, u, u.

a lablanmagan keng va orqa qator: a lablanmagan, keng, lekin old qator unlidir. Bu unlining talaffuzi qozoq, qirg'iz va boshqa ko'pgina turkiy tillarda hamda o'zbek tilining singarmonizmli lahja va shevalarida saqlangan.

ы unlisi lablanmagan, tor va orqa qator: i ham lablanmagan, tor, lekin old qator unlidir, Bu ikki unli fonema hozirgi o'zbek adabiy tilida va singarmonizmsiz lahja va shevalarda ы ning oldinga siljishi natijasida konvergensiya uchragan, ya'ni bir fonema (i) ga aylangan o unlisi lablangan, keng va orqa qator: o xam lablangan, keng, lekin old qator unlidir. Bu ikki fonema ham hozirgi o'zbek adabiy tili va singarmonizmsiz lahja va shevalarda o ning oldinga siljishi natijasida konvergensiya uchrab, bir fonema (o) ga aylangan.

u unlisi lablangan, tor va orqa. qator: u xam lablangan, tor, lekin old qator unlidir. Bu unlilarning ham hozirgi holati o va o unlilarnikidagi singari. Qadimgi turkiy tilda ham u va u alohida fonemadir.

Hozirgi o unlisini qadimgi turkiy tilda a unlisi ifodalaydi. Masalan, hozirgi bosh so'zi bash, kor so'zi kar tarzida talaffuz etiladi. A unlisi esa hozirgidek mustakil fonema bo'lmasdan e ning varianti sifatida talaffuz kilinadi. Masalan. al el. Lekin hozirgi tilda e mustakil fonemaga aylangan: kal kel: bari beri: kar ker: bar ber.

Undoshlar, qadimgi turkiy tilda b-, m, p lab undoshlari mavjud. Sir-g'aluvchi lab undoshi f yo'q O'rxun yozuvida v uchun maxsus harf yo'q Uning o'rnida b ni bildiruvchi xarf ishlatiladi. Uyg'ur yozuvida esa v uchun mahsus xarf bor. B undoshi lab — lab, portlovchi, jarangli,, shovqinlar undosh bo'lib, so'z boshida ham, o'rtasida ham oxirida ham uchraydi: bu, yab — u (amir), sab (nutk). V undoshi fakat uyg'ur yodnomalarida bor. Maxmud Qoshgariyning yozishicha, turkiy xalqlarda v ning talaffuzi ikki xil bulgan. O'g'uzlar buni lab —lab, sof turklar esa lab —tish v tarzida talaffuz qilganlar. Bu davrda lab—tish varianti bo'lgan deyish mumkin, V faqat so'z o'rtasi va oxirida o'rxun yodnomalaridagi b o'rnida uchraydi: sav(nutk), savinch (sevinch), qadimgi turkiy til s, z, t, d, n, l, r, til oldi — tish undoshlari bor. S til oldi —tish, sirg'aluzchi, jarangsiz undosh fonema bo'lib, qalin (velar) va ingichka (palatal) variantlarga ega. 3 undoshi s dan faqat jarangliligi bilan farq qilib, asosan so'z o'rtasida va oxirida va ba'zan s fonemasining varianti sifatida uchraydi: az (oz), azuk (ozuk).

T undoshi s dan fakat portlovchiligi bilan farq qilib, hamma pozisiyada uchraydi: tash, (tosh), ata, (ota),. at, (ot).

So'z boshidagi qadimgi t hozir d ga o'tgan bo'lishi mumkin: tadi — dedi. D undoshi u dan faqat portlovchiligi bilan farq qilib, so'z o'rtasida va oxirida uchraydi: bodun (xalk), od (zamon). Bu undosh o'rnida qadimgi davrlardayoq tish — ora z (z) ham ishlatilgan:

bozun, keyincha/shk z, sungra y ishlatila boshlagan: adak — azak — ayak (oyok). N undoshi d dan sonorligi va nazalligi bilan farklanadi. Demak, bu tovush til oldi, portlovchi, sonor, undosh bo'lib, so'z boshida kamroq va boshqa 18 pozisiyalarda ko'prok uchraydi: ' nang (naroa), ana (ona), ban (men). L undoshi n dan yon tovushligi va burnaki emasligi bilan farq qiladi. YOn yoki lateral undosh deb o'pkadan chiqqan havo tilning bir yoki ikki yonidan o'tishi natijasida hosil bo'lgan tovushga aytiladi. Turkiy l talaffuzida havo tilning ikki yonidan o'tadi havo tilning ikki yonidan o'tganda tovush bilateral (ikki, yon) termini bilan ataladi. Demak, l til til oldi, yon, sonor undosh bo'lib, so'z o'rtasida va oxirida uchraydi; alp (baxodir,) al (ol). r undoshi l dan yon emasligi va qaltiroqligi bilan farq qiladi. Qaltirok yoki vibrant undosh deb til uchining titrashi natijasida vujudga kelgan tovushga aytiladi. Demak, r til oldi —tish, kaltirok, sonor undosh bo'lib, l singari, so'z o'rtasida va oxirida uchraydi: ara (ora), ar (er).

Qadimgi turkiy tilda til oldi —tanglay jarangsiz undoshlardan ch bilan sh bor, j bilan j esa yuq 4 portlovchi, sh sirgaluvchi undosh. Bular ham qalin va ingichka variantlarga ega bo'lib, ch undoshi hamma pozisiyada uchraydi: chab —chav (shuxrat), achi (aka), ach (och) SH undoshi so'z boshida kamroq, so'z oxirida ko'proq, uchraydi: shad (unvon), asha (osha), ash (esh). Bu undosh o'rxun yodnomalarida s bilan almashib keladi, ash as (esh) tarzida. Mazkur undosh fonemalarning hammasi palatal (ingichka yoki yumshok) va velyar (kalin yoki yumshok) variantlarga ega. Bu undosh fonemalarning xar biri bir qator unlilari bilan kelganda ingichka talaffuz qilinadi, orqa qator unlilari bilan birga kelganda qalin aytiladi. Ingichkalik yoki palatallik til o'rta qismining qattik tanglay (palatum) ga, qalinlik (velarlik) esa tilning orqa qismining yumshoq tanglay (velum)ga ko'tarilishi natijasida vujudga keladi. Talaffuzning mana shu xususiyati bilan turkiy so'zlar qalin yoki ingichka bo'ladi: at at: al al: as as: ut ut: ol ol: ылык iliq

Qadimgi turkiy tilda y, k, (k), g (g), n til o'rta va til orqa undoshlar bor. Y til o'rta va til orqa variantlarga ega bo'lgan sirg'aluvchi sonor ch fonemadir. Y ning nazallashgan varianti ham bor bo'lib, Ton Yukuk otidagi ni shunday y xususiyatiga egadir. K (k) til o'rta. (k) va chuqur til orqa (k) variantlariga ega bo'lgan portlovchi, jarangsiz undosh fonemadir. G (r) fonema si k (k) dan faqat jarangliligi bilan farq qiladi. Qadimgi turkiy tilda k (k) xar uchala pozisiyada ham uchraydi: kan (kon), kishi, okыт (chакыр), aki (ikki), ok (uk), tok (tuk)- Qadimgi k hozirgi tillarda F, X, V, ga o'tishi yoki tushib qolishi mumkin. Qadimgi turkiy tilda bo'g'iz undoshi h yo'q

Singarmonizm. Singarmonizm deb so'zdagi tovushlarning bir-biriga xamda o'zakka qo'shimchalarning qo'shilishiga talaffuz jihatidan uyg'unlashishiga aytiladi. Qadimgi turkiy tilda singarmonizmning ikki konuni mavjud: 1) tanglay uygunligi yoki palatal va velyar attraksiya: 2) lab uygunligi yoki labial attraksiya.

Tanglay uyg'unligi —so'zdagi tovushlarning bir-biriga va qo'shimchalarning o'zakka qatorda va qalin ingichkalikda moslashuvidir: qag'anqa (hoqonga), kimka (kimga), ilgaru (oldinga), og'uzg'aru (o'g'uzga), barыг' (borish), bilig (bilim). Lab uyg'unligi birinchi bugindagi unliga keyingi burindagi unlining yoki o'zakdagi unliga qo'shimchadagi unlining lablanish jihatidan moslashuvidir: ishig (ishni), kuchug (kuchni), inim (ukam), kozum (kuzim), alimiz (davlatimiz), sumuz (lashkarimiz).

Qadimgi turkiy tilda nutqning tovushdan boshqa fonetik bo'laklari, urg'u va intonasiya hozirgi turkiy tillarnikidan o'zgacha bo'lganligiyo ko'rsatuvchi dalillar yo'q. Mustaqamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Til oldi va til opqa unlilari.

2. Keng va tor unlilar.
3. Jarangli va jarangsiz undoshlar.
4. Bo'g'iz undoshi.
5. Til oldi va til undoshlari.

Tayanch iboralar:

1. Qalin unlilar.
2. Lablangan unlilar.
3. Tor unlilar.
4. Lab undoshlari.
5. Sonor undoshlar.
6. Til oldi — tish undoshlari.
7. Til urta va til opqa undoshlari.
8. Tanglay uyg'unligi.
9. Lab uyg'unligi.
10. Singarmonizm

4-mavzu: QADIMGI TURKIY TIL LEKSIKASI

Reja:

1. Qadimgi turkiy til leksikasining o'rganilishi.
2. Qadimgi turkiy tilning etimologik qatlamlari.
3. Qadimgi turkiy til leksikasining mavzu guruhlari.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. T., 1982.
2. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. – T., 1989.
3. Kononov A.N. Grammatika yazıka tyurkskix runicheskix pamyatnikov VII-IX vv.-L., 1980.
4. Nasilov V.M. YAzyk orxono-yeneseyskix pamyatnikov. – M., 1960.
5. Nasilov V.M. Drevneuygurskiy yazık. – M., 1963.
6. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. M.-L., 1951.
7. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti Mongolii i Kirgizii. M.-L., 1959.
8. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. T., 1994.
9. Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari. – T., 2004.
10. Drevnetyurkskiy slovar. – L., Nauka. 1969.
11. Mutallibov S. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. – T., O'zFA. 1959.
12. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. 1 – 3-tomlar. – T., O'zFA. 1960-1963.

Qadimgi turkiy tilning leksik xususiyatlari haqida ilmiy ma'lumotlar yetarli emas. Bu borada Malov S.E., Batmanov A.N., Mutallibov S., Ne'matov H., Dadaboev H. kabi bir qator olimlarning xizmatlarini ta'kidlash joiz.

Mahmud Koshg'ariy lug'atida keltirilgan so'zlar izohi, etimologiyaga oid sharhlar qadimgi turkiy til davrining leksik xususiyatlarini o'rganishdagi ilk tadqiqotlar hisoblanadi. Qadimgi turkiy til bitiglarida qo'llangan turli sohaga oid so'zlar, jumladan xarbiy atamalar, ijtimoiy, siyosiy, iktisodiy atamalarga aloxida tadqiqotlar bag'ishlangan. Qadimgi til bitiklarida qo'llangan so'zlarning o'z davriga xos faol va nafaoligi, ba'zi qadimgi so'zlarning keyingi davrlarda iste'moldan chiqishi, ularning ma'no taraqqiyotidagi o'zgarishlar, shuningdek, turli sohaga oid so'zlar guruxini ajratib taxlil qilish lozim. Bu bitiglar leksikasi rang — barang ekanligini ko'rsatadi.

Turkolog — leksikolog va o'zbek tili leksikasi bilan shug'ullangan olimlar turli davrlar yozma yodgorliklari tili so'zlarini leksik qatlamlarga bo'lib o'rganganlar. Ilmiy adabiyotlarda bu davr leksikasi o'z va o'zlashgan qatlamga bo'lib tadqiq etilgan. Ammo qadimgi turkiy til leksikasini faqat o'z qatlam asosida kuzatish mumkin. Negaki, V —X

asrlar bitiglarida aksariyat soʻzlar oltoy tillari, jumladan, turkiy til, leksemalaridan iborat ekanligini koʻrsatadi. Ushbu qonuniyat lugʻaviy qatlam tadqiqiga bagʻishlangan qator ishlarda yoritilgan. Qadimgi turkiy til leksikasi Oʻrxun — Enasoy va uygʻur yozuvlari bitiglarida asosida kuzatilar ekan, sof qadimgi turkiy til soʻzlarini turli sohalarda faol qoʻllangani koʻrinadi.

Qadimgi turkiy tilning oʻzlashgan qatlam leksikasini A.Gaben quyidagicha boʻladi. 1.Moʻgʻulcha soʻzlar. 2.Xitoycha soʻzlar. 3.Qadimgi forsha soʻzlar. 4.Qadimgi hindcha soʻzlar. Gabenning taʼkidlashicha, moʻgʻulcha soʻzlarni asl turkiy soʻzlardan farqlash juda qiyin. SHuning uchun u oʻz asarida bunga misol koʻrsatmaydi. A.N.Kononov esa shu misollarni moʻgʻulcha deydi: taluy (dengiz), echu (aka). Vaholanki bu soʻzlar Gabenda birinchisi xitoycha, ikkinchisi turkcha deb krsatilgan. Boshqa misollar: altun, qunchuy, SHantung, lung kabilar xitoycha, azun, batur, qamugʻ, qatun, shad, tigin, tarqan kabilar eroniy tillardan olingan, toʻru (qonun), maqarach (maxaraja), arxant (aziz) kabi soʻzlar sanskritcha hisoblanadi.

N.Abdurahmonov qadimgi turkiy tilning lugʻaviy qatlamini mavzuvii jihatidan oʻn ikki guruhga ajratib talqin etadi. Tadqiqotlarda berilgan maʼlumotlarni umumlashtirilgan holda, qadimgi turkiy til taraqqiyotining asosiy bosqichlarida keng isteʼmolda boʻlgan soʻzlarni quyidagi mavzuvii guruhlarga ajratish mumkin: 1.Joy nomlari. 2.Etnik nomlar (urugʻ va qabila nomlari). 3.Kishi ismlari. 4.Gidrotoponimlar (daryo va koʻl nomlari). b.Zoonimlar (hayvon va parranda nomlari): a) uy hayvonlari. va yovvoyi hayvonlar; b) parranda nomlari v) quruqlik va suv hayvonlar nomlari.

1. Joy nomlari. Qadimgi turkiy til toponimlari turkiy xalqlarining moddiy — madaniy turmush tarzi, dunyoqarashi, urf —odat va anʼanalarini oʻzida mujassamlashtirgan. Qadimgi turkiy til yodnomalarida, xususan, oʻrxun — enasoy yozuvida etib kelgan Kultagin, Toʻnyuquq, Ungin bitiglarida quyidagi joy nomlari uchraydi: Tabgʻach, YAssi, Yugnak, CHambud, Tunut, Otukan yish, Altun yis, Tamir kapigʻ, Sugʻdak, Buqaraq, Raboti ogʻuz, CHacha va boshqalar. Joy nomlari oʻsha davrda ham tabiat iqlimi, narsa va buyumlarning tashqi xususiyatlariga, shuningdek, oʻsimliklar nisbatiga karab qoʻyilgan: Qaraqum, Suvluq, Atliq, Akterak qabilalar. Bir gurux joy nomlari etnik urugʻ, qabilalar nomi bilan bogʻliq: Kirgʻiz, Tabgʻach, Ogʻoʻz, Az va boshqalar. Baʼzi joy nomlari tomonlar va togʻlik joy atamallari bilan bogʻliq atalgan: Yiraya (shimol), Beriya (janub), Ongra (sharq), Kasra (gʻarb), Yish (togʻ). Otukan yish, Qadirqan yish kabi.

2. Etnik nomlar VI —XIV asrlarda Oʻrta Osiyo, Kozogʻiston, Sibir hududlarida yashagan turkiy xalqlarining etnik tarkibi xilma—hil boʻlgan. Bu hududlarda turkiy xalqlar bilan bir qatorda turkiy boʻlmagan xalqlar (eroniyalar) istiqomat qilishgan. Turkiy va turkiy boʻlmagan urugʻ, qabilalar toʻgʻrisidagi dastlabki maʼlumotlar Maxmud Koshgʻariy lugʻatida aks etgan. Bu davr yodgorliklariga oid tadqiqotlarda turkiy xalqlar va ular bilan yonma-yon yashagan etnik guruhlar haqida ilmiy asosga ega boʻlgan fikrlar bildirilgan. Turkiy qabilalardan baʼzilari oʻzlarini yashab turgan hududlari nomi bilan atagan boʻlishsa (Az), maʼlum qismi bayroqdagi tamgʻa nomi bilan yuritilgan (Tamgʻali, Tuyak,li).

Oʻrxun- Enasoy va uygʻur yozuvi bitiglarida oʻsha davrda shakllangan quyidagi turkiy va turkiy boʻlmagan urugʻ hamda qabilalar nomi uchraydi: argʻu, basmil, turk, tatar, shuningdek, tazik (tojik), tatabi, tashug, izgil, soʻgʻd, qitani, avar, tabgʻach va boshqalar. Baʼzi urugʻ va qabila nomlari bir qator bitiglarida joylanish oʻrni jihatidan

turlicha bo'lsa ham, manbalarda takror qo'llangan. Masalan, nayman, qarluq, qipchaq kabi.

3, Kishi ismlari. Bitiglarda uchraydigan kishi ismlari o'sha davr an'ana, urf — odatlariga muvofiqdir. Ular shaxslarning tavsifi, qabila uchun muqaddas hisoblangan hayvonlarga nisbatni, osmon jismlarning ulug'vorligini, ifodalagan; Kultigin (kul kuchli), To'nyuquq (tung'ich javxar), Bilga xoqon (bilga, dono) Bo'ri, Bars, Kultagin, Kuntug'di, Oytuldi va boshqalar. Qadimgi turkiy til lug'at tarkibida ismlar o'sha davr lug'at boyligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Ahamiyatlisi shundaki, bitiglarda uchraydigan ismlarni leksik —semantik, geneologik jihatidan tahlil etilganda ularning sof turkiy so'zlardan iborat ekanligi ko'rinadi. Tabiat, iqlim bilan bog'liq nomlar runik yozuvli bitiglarda ko'p uchraydi: Yinju oguz (og'uz daryo), Irtish, Selenga, Qarakol.

4. Daryo va ko'l atamaları. Balqashko'l, Kozlikol. VI — XIV asrlarda daryolar nomiga oguz so'zi qo'shib ishlatilgan.

5. Zoonimlar. a) uy hayvonlari nomlari: ot, taba-tuya; yovvoyi hayvonlar: adig' (ayik), bichin (maymun), arslon, bars, bori, kayik, arqar, soruk, soqak (kiyik), tabushqan (quyon).

b) parranda nomlari: sundulach (bulbul), turna, kozgun, toqut (tovuk), qarligach, toti, chag'rn, qaluq kabi.

v) quruqlik va suv hayvonlari nomlari: yilan, sichan, baqa.

Qadimgi: bitiglar lug'at tarkibida turli sohalarga oid, shuningdek, jins, qarindoshlik atamaları faol ishlatilgan. Bunday so'zlar hozirgi turkiy leksikaning qadimgi shakllaridir: qan (xon), og (ona), singil, opa (bobo), ini, choluq, ar, qatun, aka, ingun (karindosh), yigun (jiyan), achi (amaki), og'ul (o'g'il), eran kabi.

Qadimgi turkiy xalqlar turmush tarzining barcha sohalariga oid so'zlar asosan turkiy qatlamga xos bo'lgan.

Qadimgi turkiy til lug'at tarkibida mavjud so'zlar o'sha davrda yashagan urug' va qabilalarning barchasiga tegishlidir. Ular turkiy xalqlarining yashash tarzi, mashg'uloti, harbiy — jug'rofiy sharoiti, madaniyati qabilalarni aks ettiruvchi so'z va atamalardir.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi turkiy til leksikasiga oid umumiy xususiyatlar haqida ma'lumot bering.

2. Qadimgi turkiy til lug'aviy qatlamlarini sanang.

3. O'zlashgan qatlam leksikasining o'rni haqida gapiring.

Tayanch iboralar.

1. Leksika. So'z—tilning lug'at boyligi.

2. Termin, Maxsus sohaga oid atamalar.

3. Toponim. Joy nomi.

4. Etnonim — urug', qabila nomi.

5. Zoonim — hayvon va parranda nomi.

6. Qarindosh — urug'chilik nomlari.

7. O'z va o'zlashma qatlam.

5-mavzu: QADIMGI TURKIY TIL MORFOLOGIYASI. OT VA SIFAT FORMALARINING XUSUSIYATLARI.

Reja:

1. Qadimgi turkiy tilning morfologik xususiyatlari.

2. Ot formalari.
3. Sifat formalari.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. - T., O'qituvchi. 1982.
2. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. – T., 1989.
3. Fozilov E. O'zbek tilining tarixiy morfologiyasi.-T., 1965.
4. To'ychiboev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – T., O'qituvchi. 1996.
5. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. M.-L., 1951.
6. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti Mongolii i Kirgizii. M.-L., 1959.
7. Kononov A.N. Grammatika yazyka tyurkskix runicheskix pamyatnikov VII-IX vv.-L., 1980.
8. Nasilov V.M. Yazyk orxono-yeneseyskix pamyatnikov. – M., 1960.
9. Nasilov V.M. Drevneuygurskiy yazyk. – M., 1963.
10. Drevnetyurkskiy slovar. – L., Nauka. 1969.

Qadimgi turkiy til morfologik tip jihatidan hozirgi turkiy tillar singari agglyutativdir. Qadimgi turkiy tilda morfemalar hozirgi o'zbek tilidan singarmonistik variantlarining mavjudligi bilan farkanadi. Bu hol-sof morfologik farq bo'lmay fonetik farq hisoblanadi.

Qadimgi turkiy tilda ot, otlashgan so'z yoki sifatdan, ot yasovchi kuyidagi ko'shimchalar bor:

1. — чы, — chi qo'shimchasi. Qalin negizga. — чы, ingichkasiga — chi varianti ko'shiladi. Bu qo'shimcha kasb va biror yumush egasini bildiruvchi ot yasaydi:

-badiz (naksh) — badizchi(nakkosh)

yog- (aza) — yogчы (azani boshkaruvchi) an (ov) — anchы (ovchi)

2. ык, lik, luk; luk qo'shimchasi mavqumlik, makon va tanovar anglatadi. Lablanmagan unlili qalin negizga ык, ingichkasiga lik varianti qo'shiladi. Lablangan unlili qalin negizga luk, ingichkasi luk varianti qo'shiladi:

ach (och) achchiq (ochlik), ivmish. (meva) ivmishlik (mevazor), charuk (chorik) charukluk (chorikning tanrvari), kun (kun) kunluk (kunlik)

3. -an, - an qo'shimchasi-etuklik bildiradi va an varianti qalin negizga, an esa ingichkasiga qo'shiladi: eran, og'lan.

4. -kan (-xan), -kan qo'shimchasi. Bu qo'shimcha lakab, unvon, geografik va astronomik nomlar tarkibida uchraydi. Qalin negizga -kan (-xan), ingichkasi -kan varianti qo'shiladi:

Tangri (tangri) tangrikan (xudojuy), yeti (yetti) Yetiken (Yeti karoqchi), qadir (kiyin, qattiq) Qadirqan (joy nomi)

5. -kak, -qak, -gak, -g'ak qo'shimchasi. Bu qo'shimcha otga qo'shilganda mavjudlik, chegaralanganlik va fe'lga qo'shilganda qurol, vosita yoki, mubolag'a bildiradi. Jarangsiz undosh bilan tugagan qalin negizga kak, ingichkasiga kak varianti qo'shiladi. Jarangli undosh yoki unli bilan tugagan qalin negizi gak, ingichkasiga gak kushiladi:

6. -ku, -qu, -g'u, -gu qo'shimchasi. Bu qo'shimchaning so'z negiziga qo'shilish tartibi bundan oldinga qo'shimchaniki singari bo'lib, mavhumlik ma'nosini bildiradi: og'lan

(yosh kishi) og'lang'u (yoshlik, bolalik), asan (baxt), asangu (esonlik), inch (tinch) ingachku (tinchlik).

7. -tam, -tam, -dam, -dam qo'shimchasi. Bu qo'shimchaning. sam negizga kushilish tartibi bundan oldingi ikki qo'shimchanikiga o'xshashdir. Otdan ot yoki sifat yasaydi: ar (er) — ardam (odob, etuklik)

tangri (tangri) — tangridam (iloqiy, osmoniy).

kun (kuyosh)—kundam(kuyoshly)

8. — tash, —tash, —dash, —dash qo'shimchasi. Bu qo'shimcha hozirgi o'zbek tilidagi — doshning o'zidir. Negizga qo'shilish tartibi bundan oldingi qo'shimchaniki singlaridir:

ka (idish)—kadash (tutishgan)

9. — sh qo'shimchasi. Bu qo'shimcha undosh bilan tugagan so'zlarga birikkanda, oldiga tor unli qo'shiladi:

bar (bog, boylam) — barыsh (butan) tark (tez) — tarkish (tezlik)

10. —suk, —suq qo'shimchasi. Birinchi varianti qalin negizga, ikkinchisi ingichka negizga qo'shiladi. Otdan ot yoki sifat yasaladi:

bag'ыр (jigar) — bagыrsuk (ichak) tan (g'ayrat) — tansuk (ajoyib)

11. — sush, —sush qo'shimchasi. Bu qo'shimcha —suk, — suq qo'shimchasi bilan bir manbaga ega. Chunki turkiy tillarda k (k) —sh mosligi bor. Bu qo'shimchaga bitta misol bor:

suv (suv) — suvsush (ayron)

Qadimgi turkiy tilda fe'ldan ot yasovchi tubandagi qo'shimchalar bor:

1. -m qo'shimchasi. Bu qo'shimcha undosh bilan tugagan negizlarga qo'shilganda, oldida bir tor unli paydo bo'ladi. Bu unlining sifati negizning qalin ingichkasiga va tarkibidagi unlining lablagan lablanmaganligiga bog'liq. Fe'ldan anglashilgan harakat bilan bog'liq predmetni bildiradi: al (ol) алым (karz karz berganga nisbatan)

bar (ber) барим (karz karzdorga nisbatan) kdd (kiy) kadim (kiyim) soq (suy) soqum (so'qim) ol (o'l) olum (o'lim).

2. -n qo'shimchasi. Negizga qo'shilish tartibi m niki singari bo'lib, fe'l bildirgan harakat natijasida paydo bo'lgan predmetni anglatadi:

ak (ok) акым (sel) tar (ter) тарин (jamo) bul (top) bulun (asir) tug (tut) tuxun (tugun)

3. -ma, -ma qo'shimchasi. Qalin negizga ma, ingichka negizga ma varianti qo'shiladi. Fe'l anglatgan harakat natijasida paydo bo'lgan va shu harakatni bajaradigan-predmetni ifodalaydi:

yal (el) yalma (tez otlik otryad),kas (kes) kasma (kokil), tut (tut, saqla) tutma (sandiq)

4. -g qo'shimchasi. Bu qo'shimchaning negiziga qo'shilishi tartibi — m, — n qo'shimchalariniki singari bo'lib, fe'l bildirgan harakatni bajaruvchi va shu harakat bilan bog'liq predmetni anglatadi:

Kap (yop) капыг (darvoza), bil (bil) bilig (ilm).

Kichraytuv, Qadimgi turkiy tilda aq ak, qы, ki, чыык chik va ch kabi kichraytuv va erkalash affikslari uchraydi:

yol (yul) yolak (sukmok)

og'lan (yigit) og'lanchык (yigitcha)

ata (ota) ataqı (otajon)
ata (ota) atach (otagina)

Ko'plik Bu davrda ko'plikning asosiy va ko'p qo'llanadigan ko'rsatkich— lar qo'shimchasi bo'lib, u qalin va ingichka variantlarga ega. Qalin negizga lar, ingichka negizchalar varianti qushiladi:

kunchuy (xonim) kunchuylar (xonimlar), bag (bek) baglar (beklar).

Bu affiksning hozirgi turkiy til va lahjalaridagi nar, tar singari birinchi undoshi farqli bo'lgan variantlari qadimgi turkiy tilda yo'q. Bu davrda n bilan ba'zi so'zlarning ko'pligi shu n ni t ga aylantirib yasalganini ko'rish mumkin:

tarqan (tarxon) tarqat (tarxonlar), tagin (.shaxzoda) tagit (shaxzodalar), aran (jangchi) arat (jangchilar).

Egalik qo'shimchasi qadimgi turkiy tilda m birinchi shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasi bo'lib, undosh bilan tugagan negizga qo'shilganda uning oldida bir tor .unli orttiriladi. Bu unlining sifati negizning qalin ingichkaligiga, oxirgi bo'g'indagi unlining lablangan lablanmaganligiga bog'liq.

apa (bobo) apam (bobom)

at (ot) атым (otim)

Ikkinchi shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasi n bo'lib, buning negiziga qo'shilishi tarzi m niki kabidir:

bogda (xanjar) bogdang (xanjaring), qan (xon) kanung (xoning), og'ul (o'g'il) og'lung (o'g'ling)

Bularning ko'pligi ыз, iz, uz, uz qo'shimchalari bilan yasaladi:

apa (bobo) апамыз (bobomiz), yarlık (farmon) yarlıkungыз (farmoningiz). -ы, -i uchinchi shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasi bo'lib, unli bilan tugagan negizga qo'shilganda oldida s tovushi orttiriladi: bilig (ilm) — biligi (ilmi), at (ot) — аты (oti), su (lashkar) — susi (lashkari), yag'ы(yov) — yag'ысы.

Kelishik. Qaratqich qo'shimchasining, нынг, nung, ning nung shaklida bo'lib, n. undoshi bilan tugagan so'z va so'z formalariga qo'shilganda bir n tushib qoladi. Qaysi variantining ishlatilishi negizning qalin — ingichkaligiga bog'liq

tangri (falak) tangrining (falakning), Magastвы (kishi nomi) Magastвының, og'lan (yigit) og'lanың (yigitning). Tushum kelishigi -g', -g, -n, -ны, -ni shaklariga ega. G', g shakli undosh bilan tugagan so'z va so'z formalariga qo'shilganda oldida bir tor unli paydo bo'lib, uning sifati negizning qalin - ingichkaligi va oxirgi bo'g'indagi unlining lablangan — lablanmaganligiga bog'liq:

su (lashkar) sug (lashkarni)

tash (tosh) tashыг' (toshni)

Jo'nalish qo'shimchalari quyidagi qo'rinishlarga ega:

1. qaru, g'aru, karu, garu:

yoq (yuqori) yoq (q) aru (yuqori tomonga).

og'uz (uguz) og'uzg'aru (utuz tomonga)

ab (uy) abgaru (uy tomonga)

2. qa, ka:

tag' (TOG') - tag'ka (toqqa)

qag'an (xoqon) kag'an (xokonga)

Buning ham oldidagi undosh birinchi va ikkinchi shaxs egalik qo'shimchalaridan so'ng ng ga aylanadi.

ab (uy) abim (uyim) abima (uyimga)
bodun (xalq) bodunum (xalqim) bodunuma (xalqimga)

Qadimgi turkiy tilda hozirgi chiqish, o'rin payt qo'shimchalari asosan bir ko'rinishga ega, CHiqish qo'shimchasi dym, din, tym, tin, dan, dan, tan, tan qadimgi turkiy tilning oxirgi davrlariga xos yodnomalarda uchraydi, O'rxun yodnomalarida o'rin— chiqish qo'shimchasi da, da, ta, ta shaklida ishlatiladi.

al (davlat) alta (davlatda)
kag'an (xokon) kag'anta (xoqonda)
tash (tosh) tashta (toshda)

Bu davrda vosita qo'shimchasi ham bor bo'lib, uning ko'rsatkichi n undoshidan iborat. Bu qo'shimcha undosh bilan tugagan otlarga qo'shilganda oldida bir tor unli paydo bo'ladi va bu unlining sifati negizning qalin — ingichkaligi hamda oxirgi bo'g'indagi unlining lablangan lablanmaganligiga bog'liq:

yulduz (yulduz) yulduzun (yulduz bilan)
sungug (nayza) sungugun (nayza bilan)

Sifat. Sifat yasovchilar. Qadimgi turkiy tilda quyidagi sifat yasovchi qo'shimchalar bor: 1. -lyg, -lig, -lug, -lug qo'shimchasi. Bu qo'shimcha otdan sifat yasaydi va egalik hamda nisbat bildiradi. Lablanmagan unlili qalin negizga lyg-, ingichka negizga lig varianti qo'shiladi. Labdangan unlili qalin negizga lug,. ingich — kasiga lug varianti orttiladi: kagan (xokon) karailsh (xokonligi), akin (ekin) akinlyg (ekinli), bodun- (xalk) — bodunlur (xalkqli).

2. Siz,-siz, -suz, -suz qo'shimchasi. Bu qo'shimcha; otdan egasizlik va yuklik bildiruvchi sifat yasaydi. Negizga qo'shilish tartibi bundan oldingi qo'shimchaniki kabidir. yagy(dushman) yagysyz (dushmansiz), bilig(ilm)— biligsiz(ilmsiz), yol (yul) — yolsuz (yulsiz),og (ona) — ogsuz (onasiz) N li lahjada bu qo'shimchaning unlisi keng bo'lishi mumkin. Masalan, igsiz (kasalsiz),

3 —saq —sak qo'shimchasi. Bu istak bildiruvchi fe'l yasovchi sa, — sa hamda fe'ldan sifat va ot yasovchi —k,—k qo'shimchasining birlashuvidan hosil bo'lgan qalin negizga: —sak, ingichkasiga —sak varianti qo'shiladi: 30-

bagyr (jigar) — bagyrsaq (kungilchan),kak (kek) kaksak (kekchi).

4. -syg', -sig qo'shimchasi. Bu qo'shimcha otdan sifat yasaydi va o'xshashlik ma'nosini bildiradi. Negizga qo'shilish tartibi bundan oldingi qo'shimchaniki singaridir: kulsimon (kulsimon), beg(bek) begsig (beksimon)..

5. -ky, -ki (-G'y, -gi) qo'shimchasi. Bu qo'shimcha ot, ravish va olmoshdan nisbiy sifat yasaydi. Jarangsiz undosh bilan tugagan kalin negizga ky, ingichkasiga ki, jarangli undosh bilan kalin negizga ty, ingichkasiga gi qo'shiladi: ay (oy) ащы (oyga oid), yay (yoz) yayky (yozgi).

6. -z qo'shimchasi. Bu qo'shimcha fe'ldan sifat yasaydi: u (kila bil) uz (moxir).

7. -l qo'shimchasi, Bu qo'shimcha yashyl (YASHIL), kyzyl "(kizil), tukal (tugal singari so'zlar tarkibida uchraydi. raq formasi. Bu davr yodnomalarida qozirgi uzbek adabiy tilidagi rok qalin (rak) va ingichka (rak) variantlarga ega va u sifatning orttirma darajasini bildiradi: yig (yaxshi) yigrak (eng lxshi), artuq (ortik) artukrak(eng ortik).

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Qanday tillar agglyutinativ tillar deyiladi.
2. Ot yasovchi qo'shimchalarni sanab bering.

3. Qaysi qo'shimchalar fe'llardan ot yasaydi.
4. Ko'plik shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalar.
5. Egalik hosil qiluvchi qo'shimchalar.
6. Vosita kelishigi qo'shimchasi va uning hozirgi o'zbek tilidagi shakllarini tushuntirib bering.
7. Matnlarda qo'llangan yasama sifatlarga misollar keltiring
Tayanch iboralar.
1. Otdan ot yasovchi qo'shimchalar.
2. Fe'ldan ot yasovchi qo'shimchalar.
3. - t ko'plik yasovchi qo'shimchasi,
4. III shaxs egalik yasovchi qo'shimchasi,
5. Qaratqich kelishigi.
6. Tushum va jo'nalish kelishiklari. .
7. O'rin va chiqish kelishiklari.
8. Sifat yasovchilar. Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar.
9. Otdan sifat yasovchi qo'shimchalar.
10. Sifat darajasi yasalishi.

6-mavzu: FE'L FORMALARINING XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Fe'llarning yasalishi.
2. Grammatik-funksional shakllar
3. Fe'llarning tuslanishi.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. - T., O'qituvchi. 1982.
2. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. – T., 1989.
3. Kononov A.N. Grammatika yazыka tyurkskix runicheskix pamyatnikov VII-IX vv..-L., 1980.
4. Fozilov E. O'zbek tilining tarixiy morfologiyasi.-T., 1965.
5. To'ychiboev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – T., O'qituvchi. 1996.
6. SHukurov SH. O'zbek tili fe'l mayllari taraqqiyoti. –T., 1980.
7. SHukurov SH. O'zbek tilida fe'l zamonlari taraqqiyoti. –T., 1976.
8. Drevnetyurkskiy slovar. – L., Nauka. 1969.
9. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. M.-L., 1951.
10. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti Mongolii i Kirgizii. M.-L., 1959. Nasilov V.M. YAZыk orxono-yeneseyskix pamyatnikov. – M., 1960.
11. Nasilov V.M. Drevneuygurskiy yazыk. – M., 1963.
12. Nasilov V.M. YAZыk orxono-yeneseyskix pamyatnikov. – M., 1960.

Fe'l yasovchilar. Qadimgi turkiy tilda quyidagi fe'l yasovchi qo'shimchalar bor:

1. —a, —a qo'shimchasi. Ot va sifatdan fe'l yasaydi: at (ot) — ata (ata), tuz (to'g'ri) — tuza (to'g'rila).
2. — la, — la qo'+0shimchasi. Otdan fe'l yasaydi:
yay (ez) — yayla (yozni o'tkaz), su (lashkar)-sula (lashkar tort).
3. — lan, — lan qo'shimchasi. Ot va sifatdan fe'l yasaydi:

kan (xon) — kanlan (xonlik bo'l) qatyg' (qattiq) — qatyg'lan (chiniq)

4. — ad, — ad qo'shimchasi. Bu qo'shimchadagi d urnida tish ora z bulishi xam mumkin. Otdan fe'l yasaydi.

qul (qul) — qulad (qulga aylan)

kung(churi) — kungad (churiga aylan)

5.— (ы)k, — (i) q qo'shimchasi. Otdan fe'l yasaydi:

tash (tashkari) — tashыk (tashkari chik)

Tag' (ТОГ') — tagыk(tokka chik)

ich (ichkari) — ichik (ichkari kir)

7. — sa, — sa qo'shimchasi. Ot va fe'ldan fe'l yasab, istak bildiradi: at (gusht) — atsa (gushtsiradi)

ach (och) — achsa (ochmokchi buldi).

Daraja formalari. Qadimgi turkiy tilda quyidaga orttirma daraja qo'shimchalar bor:

1. —z qo'shimchasi. Negiz undosh bilan tugaganda oldida bir tor unli paydo buladi:tut (tut) — tutuz (tutkiz) tuy (sez) — tuyuz (sezdir).

2. — r qo'shimchasi. Negiz undosh bilan tugaganda oldida asosan tor, ba'zan keng unli paydo bo'ladi: yash(yashirin) — yashur (yashir), ol (o'l.)—olur (o'ldir), qat (ket) — katar (ketkiz)

3. — t qo'shimchasi. Negiz undosh bilan tugaganda, oldida bir tor unli paydo bo'ladi.

oqы (o'qi) — oqыt (o'qit), kucha (zo'rla) — kuchat (zo'rlat),sav (sev)— savit (sevdur).

Bo'lishsiz forma. Fe'lning bulishsiz formasi — ma, — ma qo'shimchasi bilan yasaladi. Buning — ma varianti qalin negizga, ingichka negizga, ingichka negizga — ma qo'shiladi; bar (bor) — barma (borma), kal(kel) — kalma (kelma).

Buyruq va istak formalari. Buyruq formasining ikkinchi shaxs birligi fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz negizi bilan bir xildir, ko'pligi esa birlik shakliga — n qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: ai (ayt), asid (eshit), barыn (boring (iz), olurung (utiring (iz), amgatmang (kiynamang (iz).

Sifatdosh. Qadimgi turkiy tilda quyidagi sifatdosh formalari mavjud:

1. — мыш (мыс), — mish (mis),—mush, — mush formasi. N li lahjada — мыш, — mash shakliga ham ega.kal (kol) — qalмыш (qolgan), ar (a)— armish (ekan).

2. duk, — duq, -tuk, tuq formasi.bar (bor) — barduq (borgan) bol (bul)— boltuq (bo'lgan).

3. — g-u, — gu formasi.

bar (bor) — bargu (borish kerak bo'lgan, boriladigan) kir (kir) — kirgu (kirish kerak bo'lgan, kiriladigan).

4. — tachы, — tachi, -dachы, —dachi formasi. bol (bul) — boldachы (bo'lajak)

ol (ul) — oltachi (ulajak).

5. -сык (-sık),—sik (sig), —suk (— sut),— suk (— sut) formasi. Alkan (olkishlan) alkansы<: (olkishlanishga loyik)

tug (tut) — tutsuk (tutishlik, tutishga loyiq).

6. — r formasi, Undosh bilan tutagai negizga qo'shilganda oldida bir unli tovush paydo bo'ladi. Bo'lishsiz fe'l negiziga qo'shilganda r z ga aylanadi. ta (de) — tar (der) kalur (kelar) — kalmaz (kelmas).

7. — g'ly formasi. Undosh bilan tugagan negizga qo'shilganda oldida bir tor tovush paydo bo'ladi va qaysi variantining qo'llanishi negizning qalin — ingichkaligiga bog'liq. Sodir bo'lishi kerak bo'lgan harakatdan iborat sifatni bildiradi: bar (bor) — barıǵly (boradigan, borishi kerak bo'lgan) kal (kel) — qaligly (keladigan, kelishi kerak bulgan).

Ravishdosh formalari. Ravishdoshning quyidagi formalari mavjud:

1. a, — a, — u, — u, — ы — i formasi. Bu hozirgi —a ravishdoshining turli variantlaridir: ash-(osh —) — asha (osha, oshib), kach— (kech) — kacha (kecha, kechib) tugun — (ushla —) — tugunu (ushlay,ushlab) asid (eshit —) — asidu (eshita,eshitib)

al— (od —) — aly (ola, olib)

2. — l, — up, — up, — ыsh, — ip formasi, Bu hozirgi — ib ravishdoshning turli variantlaridir: ta—(de —) tap(deb)

al— (ol~) — alyp(olib) asid— (eshit —) — asidip (eshitib) olur — (ultir —) — olurup (ultyrib) sungush — (urush) — sungushup (urushib) Bunga yana — an, —an kushilishi xam mumkin: kal — (kel—) — kalip (kelib) — kalipan (kelibon) tut—(tut)— tutup (tutin) — tutupan (tutibon) 3. — galy, — gali, —kaly, — kali formasi.Bu hozirgi — gani (— ga —li) formasining turli variantidir:al — (ol—) — algady (olgani) uz — (uz —) — uzgali (uzgani).

Ravishdosh qo'shimchasining kaysi varianti qo'llanishi negizning qalin — ingichkaligi va unlining lablangan — lablanmaganligiga bog'liq

Zamon formalari. Qadimgi turkiy tilda quyidagi zamon formalari mavjud:—di,—ti formasi. Bu forma ma'no jihatdan hozirgi shu shakli bilan bir xil bo'lib, fonetik jihatdan farq qiladi. Qo'shimchaning qalin varianti qalin negizga.. ingichka varianti ingichka negizga qo'shiladi. Unli bilan tutagan negizga asosan jarangli — dy varianti qo'shiladi: kalmady — qolmadi (Tun,4); tadi —dedi (Tun,5), Lekin negiz undosh bilan tugaganda ko'pincha jaranglisiga jarangsizi, jarangsiziga jaranglisi orttiriladi: Turuk bodun olti, alkınty, — turk xalki uldi, tutab ketdi.(Tun ,3): bir urugi yadag erti — bir kısmi yayov edi (Tun, 4).

SHart formasi. Fe'lning shart formasi qadimgi turkiy tilda — cap, — cap qo'shimchasi bilan yasaladi:bar — (bor —) — barsar (borsa) , ar — (e —) — arsar(esa,bulsa).

Fe'llar qadimgi turkiy til davrida birinchi va ikkinchi guruh tuslovchilari bilan tuslangan. To'liq formali birinchi guruh tuslovchilari kishilik olmoshlaridan kelib chiqqan: -man, -san, -ol, -miz, -biz, -siz, -olar. Ikkinchi guruh qisqa formali tuslovchilar esa to'liq formalilarning qisqariishidan hosil bo'lgan.

Keltim, kelting, kelti, keltimiz, keltingiz, keltilar.

Kelurman, kelursan, kelurol, kelurbiz, kelursiz, kelurolar.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriklar.

1. Matnlardan yasama fe'llarga misollar toping.
2. Sifatdosh yasovchi qo'shimchalarning ma'no xususiyatlarini aniqlang.
3. Ravishdoshlarning ma'no farklarini aniqlang.
4. Fe'llarning shart shakli bilan gaplar keltiring.

Tayanch iboralar.

1. Fe'l yasovchilar.
2. Fe'llarda daraja hosil qilinishi.
3. ma, ma qo'shimchalari.
4. Buyruq va istak shakllarining yasalishi.
5. Sifatdosh yasovchilar.
6. Sifatdoshlarning otlashuvi.
7. Maqsad ravishdoshi.
8. -cap, -cap qo'shimchasi

7-mavzu: SON, OLMOSH VA YORDAMCHI SO'ZLAR

Reja:

1. Son so'z turkumi.
2. Olmosh so'z turkumi.
3. Ravishlar haqida.
4. YOrdamchi so'zlar.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. - T., O'qituvchi. 1982.
2. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. – T., 1989.
3. Kononov A.N. Grammatika yazyka tyurkskix runicheskix pamyatnikov VII-IX vv.-L., 1980.
4. Fozilov E. O'zbek tilining tarixiy morfologiyasi.-T., 1965.
5. To'ychiboev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – T., O'qituvchi. 1996.
6. Drevnetyurkskiy slovarь. – L., Nauka. 1969.
7. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. M.-L., 1951.
8. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti Mongolii i Kirgizii. M.-L., 1959.
9. Nasilov V.M. YAzыk orxono-yeneseyskix pamyatnikov. – M., 1960.
10. Nasilov V.M. Drevneuygurskiy yazыk. – M., 1963.

Son. YOdnomalarda sanoqqa oid bir xususiyat bor bo'lib, u undan yuqori birligi bor ikki xona.li sonlarga taalluqlidir. Bunda birlik oldin aytilib, undan so'ng shu songa oid o'nlik emas, undan keyingi o'nlik aytiladi: Bas yigirmi (un besh), alty yigirmi (un olti), yati yigirmi (un etti), bir otuz (yigirma bir), uch otuz (yigirma uch), alty otuz (yigirma olti).

O'nlik oldin aytilganda. esa undan sung birlikdan oldin artuky so'zi orttiriladi: otuz artuky to'rt yashyma (o'ttiz to'rt yoshimda).

Hozirgi ikkilangan undoshli sonlarda qadimgi turkiy tilda bir undosh bo'lgan: iki (ikki), yati (etti), sakiz (sakkiz), tokuz (to'qqiz), otuz (o'ttiz), alig (ellik), Yigirma soni yigirma, sakson sakkz on, to'kson tokuz —on, ming — bing shakliga ega. O'n ming tuman soni orqali ham ifodalanadi.

Tartib son qo'shimchasi fonetik variantlariga ega va hozirgi o'zbeq tilida bo'lgani kabi so'z oxiridagi i unlisi yo'q uchunch (uchinchi), tortunch (to'rtinchi), basinch yoki bashinch (beshinchi). Birinchi o'rnida bashtunky yoki ilki va ikkinchi o'rinda ikinti shakli ishlatiladi.

Jamlov qo'shimchasi aru, agu shakliga. ega: alty (olti) altaru(oltov), iki (ikki) ikagu (uchov), uch(uch) uchagu(chov).

Taqsim formasi (r) -ar, (r) -ar qo'shimchasi bilan yasaladi: bir(bir) — birar(bittadan), uch (uch)—uchar (uchtadan), alty (olti) — altयरar(oltidan), iki (ikki)— ikirar (ikkitanadan).

Olmosh, qadimgi turkiy tildagi olmoshlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. O'zlik olmoshi ozdan tashqari, kantu (kandu) so'zi bilan ham ifodalanadi. Oz a eli da ot bulib, u "nafs" va "jon" ma'nolarida ishlatilgan.
2. Uchinchi shaxs kishilik olmoshi bosh formada ol shakliga. ega bo'lib, boshqa formalarda a (n) shaklini oladi: anung (uning) any (uni), angar (unga), anda yoki anta (unda), anun (u bilan).
3. Kishilik olmoshlarining birinchi shaxs birligi man va ban shakllariga, ikkinchi shaxs birligi san shakliga ega bo'lib, jo'nalish formasida qalinlashadi banga, manga (menga), sanga (senga).
4. Biz va siz olmoshlarining qaratqich formasi n, jo'nalish formasi —na qo'shimchasi bilan yasaladi: bizing (bizning), sizing (sizning), bizinga (bizga), sizinga (sizga).
5. Bu olmoshining qaratqich formasi bunung va munung shakllariga va jo'nalish - formasi bunga (r):munga (r) ko'rinishlariga ega.
6. So'roq olmoshi nima o'rnida na, qaysi o'rnida kan(i) u va qanu, qanday ux o'rnida naluk ishlatiladi.
7. Birgalik olmoshi gramma o'rnida kamur va alku iste'mol qilinadi.
8. Belgilash olmoshi har o'rnida sayu (postpozitiv holatda) ishlatiladi.
9. Inkori olmoshi hech o'rnida nang iste'mol qilinadi

Ravish. Olimlar ravishlarni nisbatan yangi so'z turkumi deb hisoblaydilar. Ravishlarning aksariyati ot va fe'l formalarining qotib qolgan o'zgarmas shakllari sanaladi. Ravishlarning formal jihatdan o'zgarmasligi uning muhim morfologik belgisi hisoblanadi. Otlar ayrim kelishiklarda qotib qolishi bilan ravishga o'tgan. Fe'llarda esa ravishdoshlarning ravishga o'tishi kuzatiladi. Qadimgi turkiy tilda hozirgi o'zbek adabiy tilida yo'q bo'lgan ravishlar bor. Masalan, otu (so'ngra), kisu (keyin), karu (orqaga). ongra (oldinga, oldinda,) kabi. Ba'zi ravishlar shaklan va mazmunan o'zgargan. Masalan, kadimiy kop (butunlay), hozir xo'p shaklida va ma'nosi ham bir oz toraygan. Endi anti shakliga ega.

Ravish yasovchi qo'shimchalar quyidagilar:

1. — dy, — ty, — ti qo'shimchasi:
qatyg' (kattik) — katyshdi (kattik kilib) adgu (yaxshi) — adguti (yaxshilab)
 2. — la, — la qo'shimchasi: tun (tun) — tunla (tunda) chyn (chin) — chynla (chindan)
 3. — cha, — cha qo'shimchasi:
azrak (juda oz) — azrakcha (juda oz holda) turk (turk) — turkcha (turkchasiga)
 4. — pa, — pa qo'shimchasi: as (ost) — asra (ostda) ich (ich) — ichra (ichda)
- Bu qo'shimchalarning ham yuqoridagilardek kaysi variantlarda qo'llanishi negizning kalin ingichkaligi va lablangan va lablanmaganligiga bog'liq.
- Bu kelishik qo'shimchasi — karu, —karu dan vujudga kelgan. Bundan tashqari turkiy tilda, xuddi hozirgi turkiy tillarda bo'lgani singari, zamon va makon hamda vosita kelishigi qo'shimchalari ham ravish yasashi mumkin.

Yordamchi so'zlar. Qadimgi turkiy til davrida yordamchi so'zlar hozirgi tilimizda bo'lganidek rang-barang bo'lmagan. Ma'lumki, arab va fors tilining ta'siri qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lmagan. SHuning uchun hozirgi tilimizdagi ko'pchilik yordamchi so'zlar qadimgi yodgorliklar tilida uchramaydi. Mavjud yodgorliklar tilida ba'zi bir yordamchilar qayd etilgan. Qadimgi turkiy tilda yordamchi so'zlarga oid xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Hozirgi u, va portlovchilari o'rnida ly (li) qo'shimchasi ishlatiladi: adygly tonguzly (ayik va tungiz) tunli kunli (tunu kun).
2. Hozirgi yo o'rnida azu bog-lovchisi ishlatiladi.
3. Hozirgi — gacha o'rnida tachi-, tokonta o'rnida tapa ko'makchisi qo'llaniladi.
4. Hozirgi ham o'rnida yama ishlatiladi, — ok yuklamasi — ok, — ak shakliga ega.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

2. Sonlarning qadimgi turkiy tildagi turlarini aniqlang,
3. Olmoshlarni kelishik qo'shimchalar bilan turlang.
4. Son, ravish va olmoshlarga darslikdagi matnlardan misollar toping va ularni grammatik kategoriyalar bilan turlang.
5. YUqoridagi qo'shimchalarga matnlardan misollar keltiring.
6. YOrdamchi so'zlarga misollar keltiring.

Tayanch iboralar,

1. Taqsim son
2. Jamlovchi son
3. Tartib sonlarining yasalishi.
4. O'zlik olmoshlari.
5. Co'poq olmoshlari.
6. Birgalik va belgilash olmoshlari.
7. Otdan ravishga ko'chgan so'zlar
8. Fe'ldan ravishga ko'chgan so'zlar
9. Ravish yasovchi qo'shimchalar.
10. Bog'lama vositalar.
11. — azu bog'lovchisi.
12. — tapa ko'makchisi.

8-mavzu: QADIMGI TURKIY TIL SINTAKSISI

Reja:

1. So'z birikmasi.
2. Sodda gap
3. Qo'shma gap

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. - T., O'qituvchi. 1982.
2. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. – T., 1989.
3. Abdurahmonov G'., SHukurov SH. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. –T., 1973.
4. Abduraxmonov G.A. Issledovanie po staroturkskomu sintaksisu. Moskva. 1967.
5. Kononov A.N. Grammatika yazyka tyurkskix runicheskix pamyatnikov VII-IX vv.-L., 1980.
6. To'ychiboev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – T., O'qituvchi. 1996.
7. Abduraxmonov G.A. Issledovanie po staroturkskomu sintaksisu. Moskva. 1967.
8. Nasilov V.M. YAZyk orxono-yeneseyskix pamyatnikov. – M., 1960.
9. Nasilov V.M. Drevneuygurskiy yazyk. – M., 1963.
10. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. M.-L., 1951.

11. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti Mongolii i Kirgizii. M.-L., 1959.
12. Kondrat'ev V.G. Ocherk grammatiki drevnetyurkskogo yazyka. – L., 1970.
13. Aydarov G. YAzyk orxonskix pamyatnikov drevnetyurkskoy pismennosti VIII veka. Alma-Ata, 1971.
14. Drevnetyurkskiy slovar'. – L., Nauka. 1969.

Sintaksis. Har bir tilning, shu jumladan o'zbek tilining gap qurilishi, so'z birikmalari, gap bo'laklari, ular orasidagi mazmun va grammatik aloqalar uzoq taraqqiyot qonunlari asosida va boshqa tillarning ta'siri tufayli ro'y beradi.

Qadimgi turkiy til o'zbek va boshqa ko'p turkiy tillarning shakllanishida asos bo'lgan. Ammo bu turkiy tilning o'zi ham ma'lum taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirgan, shakllangan ma'lum bir qolipga tushgan yozma til edi. Har qanday tilning qurilishi asta – sekinlik bilan taraqqiy etadi, o'zgaradi. Qadimgi turkiy tilning tuzilishi, sintaktik strukturasi bilan hozirgi zamon o'zbek va boshqa turkiy tillarning tuzilishi o'rtasida ko'p o'xshashlik va farqli tomonlari bor bo'lib, bu hol tilning bir, bir yarim yillik taraqqiyoti natijasidir.

So'z birikmalari. Qadimgi turkiy tildagi so'zlar o'zaro birikib, ma'lum bir so'z birikmasini tashkil etgan va ma'lum fikrni yoki uning ayrim elementlarini ifodalagan. Bu so'z birikmalarining biri hokim boshqaruvchi so'z bo'lib, ikkinchisi tobe so'z bo'lgan va hokim so'z tomonidan boshqarilgan.

Boshqaruvchi so'zning harakteriga ko'ra, so'z birikmalarini ikki gruppaga bo'lish mumkin:

1. Otli birikmalri. 2. Fe'lli birikmalar.

1. Otli birikmalarda boshqaruvchi so'z ot bo'lib, u boshqarib kelayotgan so'z ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh bo'lishi mumkin:

Turuq bodun (Tun, 1) turk xalqi. Samiz buqa, turuq buqa (Tun, 5). Aki, uch kisiligin tazib bardy (Kt, 41) ikki uch kishi bilan kochdi. OL aki kisi bar arsar (Tun, 10) u ikki kishi bor ekan ... udyzyg'ma ulug'i (Tun, :) uyushtiradigan ulug'i.

Fe'lli birikmada boshqaruvchi so'z fe'l yoki uning funksional shakllari sifatdosh, ravishdosh, shart fe'li, harakat nomi bo'lib, unga tobe bo'lib boshqarilib kelayotgan so'z ma'lum kelishik yoki ko'makchi bilan birikib kelgan ot yoki otlashgan so'z, olmosh, ravish yoki ravishdosh, shart fe'li bo'lishi mumkin: qag'an qysdym hoqonni qo'lga oldim.

Qadimgi turkiy tilda so'z birikmalarini tashkil etgan bo'laklarini o'zaro aloqaga kirish usuliga ko'ra 3 turga bo'lish mumkin.

1. Bitishuv. So'zlar hech qanday grammatik vositalar (kelishik qo'shimchasi va ko'makchi) yordamisiz o'zaro aloqaga kirib, so'z birikmasini tashkil etadi. Bunday so'z birikmalar mazmun va intonasiya yordami bilan o'zaro birikadi. Quyidagi so'z turkumlari bitishuv yo'li bilan so'z birikmasini tashkil etgan:

1). Ot bilan ot: tyr'q bodun (Tun, 1), Og'ym katun (Kt, 49(9) ona Xatun. Tyrk sir bodun yarinta (Tun, 3),

2). Ot bilan fe'l: Tabg'ach ... bas tuman su kalti (Kt, 25)

Mag'm korgan kshglap (Kt 48(8), Ol sub qodn bardnmiz (Tun, 27) u suvning quyi tomoni bilan bordik, 2. Boshqaruv. Tobe so'z ma'lum grammatik vosita (kelishik formalari yoki ko'makchilar) orqali bosh so'zga birikadi. Qadimgi turkiy tilda bosh

kelishikdan tashqari tushum, jo'nalish, o'rin chiqish, vosita kelishiklari bo'lib, tobe so'z ma'lum bir kelishik affikslari yordami bilan bosh so'zga bog'lanadi:

a). tushum kelishigi — g' (mg, ig — uo', —ug (ush) — in, vositasida: bodunsh qop almns (Kt,29) — Qanshghsh qodup (Tun,3).

b) junalish kelishigi — ka (ka, — taru), — garu,- — a, — a vositasida: On tunke ... bardymyz (Tun 26) — un tunda bordik. Ilgari kurugaru sulap tarmish (Kt, 12)

v) urin —; chirsh kelishigi — da, da, (ta, ta) vositasida; Tabgachda adrultu (Tun 2). Orlan- birla tashtyn tagta arykta ilinguka bardy. (Oyo, 608 (7 — 8) — Ugli bilan chetga, togda, daryoda sayr kilishga bordi.Oguzda korug kalti (Tun,8) — Ogizdan kuzatuvchi keldi.

g) vosita kelishigi — n, —yn, — in,—un, — un vositasida: Yuz artik okun urty (Kt,32) — yuzdan ortik uk bilan urdi.Kul tagin yadagyn tagdi.

Ot yoki ot ma'nosidagi so'zlar ko'makchilar bilan birikib, hokim so'zga bog'lanadi. Qadimgi turkiy tilda quyidagi ko'makchilar qo'llaniladi: birla, asha, tana, uza,sayu, ara,kisra,: sakiz tuman (bir)la songushdim.

3. Moslashuv. Kddimgi turkiy tilda. ega bilan kesim, hozirgi zamon o'zbek tilidagi kabi, shaxs va sonda o'zaro moslashgan.

Ammo bunda quyidagicha o'ziga xoslik bo'lgan:

1. Uchinchi shaxs ot kesimda ko'pincha ol bog'lamasi kesimlik belgisi bo'lib, ega bilan kesim munosabatini ifodalaydi.Ashy natu ol — ovqati nimadir? Bilga Tonyukuk anyyg ol, oz ol, — anglar (Tun, 34) —Bilga Tynyukuk zur, usta — anglar.

Turkiy izofa. Turkiy izofa ikki otning aniqlovchi va aniqlanmishlik aloqasiga kirishuvdir. Odatda birinchi ot aniklovchi, keyingi ot esa aniq — lanmish bo'ladi. Qadimgi turkiy tilda turkiy izofani ko'proq uchinchi turi (belgisiz shakli) qo'llangan:

Turuk bodun(Kt:25), Ksgman yar (Kt.20). Izofaning ikkinchi turi (aniqlovchining belgisiz kelishi) kamroq uchraydi: Turuk oguz baglari (Kt.ZO). Turkiy izofaning birinchi turi (aniqlovchi va aniqlanmishning belgili kelishi) qadimgi turkiy tilda kam qo'llanadi;

Turuk bodunun alii torusun - Turk xalqining eli va qonun — qoidalari. Sintaksis. Har bir tilning, shu jumladan o'zbek tilining gap qurilishi, so'z birikmalari, gap bo'laklari, ular orasidagi mazmun va grammatik aloqalar uzoq taraqqiyot qonunlari asosida va boshqa tillarning ta'siri tufayli ro'y beradi.

Sodda ran turlari. Qadimgi turkiy tilda, hozirgi zamon turkiy tillaridagidek, sodda gaplar fe'l kesimli yoki ot kesimli bo'lgan.

Fe'l kesimli gaplarnint kesimi aniqlik fe'li yoki fe'lning turli funksional shakllari bilan ifodalanadi: Turuk bodun olty,x alkynty, yok bolty (Tun, 3) turk xalki uldi, sarson buldi, yuk buldi. Kuta ¹URUR^{la}-R (U^e. 187) kutib turadilar. kop bilirsiz (Kt, 31) -ko'p bilasiz. Bilmaz arti (Kt, 30) bilmas edi. Yangyltyg (Kt, 28) yanglishding. Okush kishig oltig (Kt, 28) Kup kishini uldirdi. Igiding, amgatmang, tolgatmang (Bb, Xa, 13) tarbiya qiling, qiynamang, hayajonlantirmang.

Ot kesimli gaplarning kesimi, ot, sifat, son, olmosh. ravish bilan ifodalanadi. Kesimlik ko'rsatkichi vazifasida bog'lamalar (may, san, di, ol, bol, tur, ar- kabilar) qo'llanadi. Ammo bu belgilar bo'lmasligi ham mumkin; Bunda kesim gapning mazmunidan, intonasiyasidan, o'rnidan bilinib turadi;

Turuk bodun yama bulganch (ol, tamish), ORYZ yama, tarkanch ol, tamish (Tun, 62) Turk xalk.i xam tinch emas, ug-iz xam tarkok debdi.

Gap bo'laklari. Ega bosh kelishik formasida bo'ladi. Ammo qadimgi turkiy tilda

har qanday bosh kelishikdagi soʻz ham ega boʻla olmaydi: Kaganы su tasыkды (Tun, 33) Xoroni lashkar bilan yoʻlga chikdi.

Kesim. vazifasida feʼlning turli zamon va mayl formalari, funksional shakllari qoʻllanib, feʼl kesimli gaplarni tashkil etgan. Ot kesimli gaplarning kesimi ot, sifat, son, olmosh, ravish orqali ifodalangan. Bu xil kesimlar orqali turli zamon, mayl va modal munosabatlarni ifodalash uchun bogʻlamalar va shu vazifadagi yordamchi soʻzlar koʻllangan.

Toʻldiruvchi. Toʻldiruvchilar hozirgidek, vositasiz yoki vositali boʻlib, ot va ot maʼnosidagi soʻzlar bilan ifodalangan., Bu davrdagi toʻldiruvchiga xos xarakterli xususiyat quyidagichadir: Toʻldiruvchi vazifasida ayrim kelishik formasi bilan shaklangan soʻzlar gan, bu formalar hozir ishlatilmaydi:

Urы Ogʻlyн, kul bolты, silig kыz orlyн kung bolты.

Aniqlovchi qadimgi turkiy tilda, hozirgidek, aniqlovchilar sifat, son, olmosh, bilan ifodalanadi: Silig kыz (Kt) chiroyli kiz. Kun batsыkdaxi sogd (Kt) Ardar odka (Kt) unday paytda.

Izohlovchi. Ot bilan otni aniqlash. YOdnomalarda keng qoʻllanadi. Bunday izohlovchilar qarindosh, unvon, millat, belgi xususiyat va boshqa munosabatlarni ifodalaydi: Ogum katun (Kt, 49(9) onam Xotun faol. Qadimgi turkiy tilda xol ot, son, ravishdosh, olmoshlar orqali ifodalaniladi: Turk kagan Otukan yыgd olursar (KT) Turk xokoni Utikan yailovida bulsa. Ol sub kody bardымыз (Tun) u suvni kuyilab bordik. Ancha tamis (KT) shunday debdi. Kultagin ozincha kargak bolты (KT) Kul tigiv: uz ajali bilan uldi. Tiru olu yoryуur artыg (KT) Tirilib, ulib yurar edik. Bol'chuka tan unturu tagdimiz (Tun) Bulchikka tong otganda etdik. Turk kagan olurgaly oguzka tagmis yok ermis.(Tun,18).

Uyushiq boʻlaklar Kadimga turkiy tilda gapning bosh boʻlaklari ham, ikkinchi darajali . boʻlaklar ham uyushib kelishi mumkin: Bilgasi, chabyсы ban ok artim (Tun,7) Allomasi, chovugdi men oʻzim edim. Turuk bodun olты, alkынты, yok bolты (Tun,3) Turk xalki uldi, sarson buldi, yuk buldi..

Ajratilgan boʻlaklar. Qadimgi turkiy tilda ajratilgan gap boʻlaklari xam uchraydi. Ajratilgan gap bulaklari ifodalangan maʼnoni ajratib, taʼkidlab kursatish uchun stilistik vosita bulgan. Bu usul quyidagicha amalga oshyirilgan: Turuk kara kamug bodun ancha tamis (Kt, 8 9) , ban ozum bilga Tonyukuk.

Gap bulaklarining tartibi. Qadimgi turkiy yodnomalarning xil xususiyatini oʻrganish bu tilning ancha ishlangan adabiy til ekanini koʻrsatadi. Bu tilda har bir gap boʻlagi maʼlum tartibga ega. Bu tartib hozirgi zamon turkiy tillaridan deyarli farq qilmaydi.

Ega odatda kesimdan oldin kesim esa gap oxirida keladi. Gapni uyushtiradi, yakunlaydi. Aniklovchi aniklanmishdan, hol va toʻldiruvchi kesimdan, ravish holi feʼl kesimdan oldin qoʻllanadi. Qadimgi turkiy yodnomalar tilida qoʻllangan gaplarning chegarasi kesimlarning oʻrniga va ularning mazmuniga koʻra belgilanadi, gaplarni, biriktiruvchi bogʻlovchilar deyarli qoʻllanmaydi, Bogʻlovchi vazifasidagi vositalar kam qoʻllanadi, gaplar orasida tinish belgilar ishlatilmaydi.

Qadimgi turkiy tilda qismlari orasida logik munosabati maʼlum darajada differensiallashgan konstruksiyalar bor.

Ular maʼlum darajada hozirgi zamon oʻzbek tilida qoʻllanuvchi qoʻshma gaplarga yaqin turadi. Ular oʻzaro logik va grammatik alokasiga koʻra, ikki katta guruhni tashkil qiladi;

1. Parataksis konstruksiyalar.

2. Gipotaksis konstruksiyalar.

Parataksis konstruksiyalar hozirgi turkiy. tillardagi ayrim bog-lovchisiz va bog'langan qo'shma gaplarning shakllanishiga asos bo'ladi. Bunday konstruksiyalarni tashkil etgan qismlar (gaplar) logik jihatdan bir —biriga bog'langan bo'lsa-da, mazmunan mustaqil bo'ladi. Ularning tarkibiy qismlari o'zaro, grammatik bog'lanadi, hozirgidek teng bog'lovchilar gipotaksis konstruksiyalar esa hozirgi zamon tilida (Vositarsiz va ergash gaili qo'shma gaplarning shakllanishiga asos bo'ladi. Bu xil konstruksiyalarni tashkil etgan qismlar mazmunan. bir — biriga zich bog'lanadi, birining mazmunidan ikkinchisi kelib chikadi. Parataksis konstrukpiyalar, Qadimgi yodnomalar tilining asosini tashkil qiladi. Bu xil konstruksiyalarni tashkil etgan sodda gaplar tuzilishiga ko'ra oddiy bo'lib, ular umumiy bir fikrni ifodalash uchun xizmat qiladi, mazmunan va shaklan bir — biriga tobe bo'lmaydi, ammo umumiy bir fikrni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu xil sodda gaplar asosan sanash ohangi bilan talaffuz etiladi.

1. Parataksis konstruksiyalar bir paytda yoki ketma —ket ro'y bergan yoki mavjud bo'lgan voqea — hodisa, belgi — xususiyatlarni ifoda etadi:

a) sodda gaplarniig kesimi ot kesim yoki fe'l kesim bo'lib, odatda ular zamonni ifodalaydi: Udar Sangun kalti, Tabgach kaganta Isyi Likang kalti, bir tuman arы, altun, kumush: kargaksiz kalurti (Kt, 52) Udar sangun keldi; Tabgach xoqondan Isyi Likang; keldy, bir tuman ipak, oltin, kumushni haddan ortiq keltirdi.

b) ketma —ket ruy beradigan vokea— hodisalar, belgi xususiyatlarni ifodalovchi konstruksiyalarni tashkil etgan sodda gaplarning kesimlari shaklan bir xil zamonga oid bo'lsa ham, mazmunan hodisa yoki xususiyat ketma —ket ruy beradi: akinti Ыгдбара Yamtar boz atы binip tagdi, Xolat anta olti; uchunch Yagin, Silig bagin kadimtshg torыg at binip tagdi, ol'at anta olti.

Parataksis konstruksiyalarning tarkibidagi sodda gaplarda voqea —hodisa, belgi-xususiyatlarning bir — biriga zidligi, nomuvofikligi ifodalanadi yoki ular kiyoslanadi.

a) Zidlik, nomuvofik -Tokuz oguz bodun kantu bodunым arti, tangri yar bulgакыи uchun yagы болты —

(Kt,44/4) Tukkiz ug-iz xalki uz xa,lkim edi, kuk, er fitnaga. tulgani uchun, dushman buldi/allig bodun artim, alim amti каны? (Kt,9) Davlatli xalk edim, davlatim endi qani?

b) Klyoslang: Tangri kuch bartuk uchun kangым kagan susi boritag armis, yagысы' konitag armis (Kt,12) tangri kuch bergani uchun otam xoqonning lashkari bo'riday ekan. Yagымыз tagra uch ok tagirti, biz shag artimiz (Tun,8)

Gipotaksis konstruksiyalar. Qadimgi turkiy yodnomalarda shunday murakkab ran konstruksiyalari ham uchraydiki, bunday konstruksiyalarni tashkil etgan sodda-gaplar mazmunan bir —biriga bog'liq bo'ladi, bir i ikkinchisini mazmunan to'ldiradi yoki izohlaydi. SHuning uchun ham bunday konstruksiyalarni tashkil etgan gaplar o'zaro mahsus intonasiya bilan bog'lanadi yoki bu xil gaplarni biriktirish uchun maxsus boklovchilar yoki boglovchi vazifasidagi vositalar (fe'l formalar, kelishik va b.) qo'llanadi. SHunga kura gipotaksis konstruksiyalar ikki turga bo'linadi:

1. BOG'LOVCHISIZ gipotaksis konstruksiyalar.

2. BOG'LOVCHILI gipotaksis konstruksiyalar.

1. BOG'LOVCHISIZ gipotaksis konstruksiyalar. Gipotaksis konstruksiyalarni tashkil etgan qismlar (gaplar) o'zaro grammatik bog'lovchilarsiz intonasiya vositasida birikadi. Ammo

qismlarni bir. biriga bog'lash uchun ba'zi leksik elementlar ham xizmat qiladi. Bunday konstruksiyalar orqali quyidagi mazmun munosabatlari ifodalanadi:

1) Sabab natija. Gipotaksis konstruksiyani tashkil etgan qismlarning birinchisi sababni, ikkinchisi esa undan kelib chikadigan natijani ifodalaydi. Sabab — natijalarni ifodalangan konstruksiyalarni tashkil etgan qismlarning kesimlari fe'l kesim yoki ot kesim

bo'lishi mumkin: TypFH Yargun kolta buzdyмыз, arkin azkына arii tazip bardы.

2) Payt. Gipotaksis konstruksiyaning . tarkibidagi birinchi qism ikkinchi qismdan anglashilgan mazmunning ro'y berish paytini ifodalaydi: Qara kolta sungush — dimiz, Kul tashni bir qirq yashayur arti.

3) Sabab. Gipotaksis konstruksiyaning ikkinchi qismi birinchi qismidan anglashilgan mazmunning ro'y berish- sababini ifodalaydi; ...angar koru biling, turk amtm bodun baglar yangыltachь

4) Izohlash, Gipotaksis konstruksiyaning' ikkinchi qismi birinchi qism tarkibidagi biror bo'lakning mazmunini izohlaydi, aniqlaydi yoki to'ldiradi: Sakьshtьsh; turuk, buqalm samiz buqalm arqda bilsar, samiz buqa turuq buqa tayin bilmaz armis

2. Bog'lovchili "gipotaksis konstruksiyalar(ergash gapli konstruksiyalar) Gipotaksis konstruksiyalarning birinchi qismi ikkinchisiga bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi vositalar —sifatdosh, ravishdosh, shart fe'li, kelishik formalari, nisbiy olmoshlar orqali olinishi mumkin. SHuning uchun bu xil konstruksiyalar hozirgi ergash gapli konstruksiyalarga o'xshasa ham, mazmuni bog'lovchi va bog'lovchi vazifasidagi vositalarning o'ziga xosligiga ko'ra, bunday konstruksiyalardan farq qiladi.

Gigyutaksis konstruksiyaularni tashkil etgan gaplarni, mazmuni va ayrim grammatik belgilariga ko'ra, ergash va bosh gaplarga bo'lish mumkin.Ergash va bosh gaplar o'zaro quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi:

1. Sifatdosh orqali. Sifatdosh o'zi yolg'iz yoki biror vosita bilan (ko'makchi eki kelishik "formasi) ergash va bosh gaplarni biriktiradigan) yolg'iz sifatdosh shakli orqali: achumiz apamьv tutmьyu yar sub idisiz bolmazun tayin.b) sifatdosh 1 uchun ko'makchisi orqali: Tangri kuch bartuk uchun qanьsh kag'an susi boritag armis.

2. SHart fe'li orqali. SHart fe'li shart, to'siqsizlik, payt munosabatini ifodalagan gipotaksis konstruksiyalarning qismlarini biriktirish uchun qo'llanadi: Kul tagin yoq arsar, q'p oltachi artigiz.

3. Nisbiy olmoshlar yordami bilan, Nisbiy olmoshlar (nang,—nang, qachan) ergash gapni bosh gapga bog'lash bilan birga to'siqsiz, payt, to'ldiruvchi ergash tap hosil qiladi: Qachan anta tagip, ilinchu mangi ishin arturduqta otu.

4. Ravishdosh orqali. Qadimiy turkiy tilda ravishdoshning turli formalari qo'llanib, shulardan ip va uning turli variantlari formasi ergash gapning kesimi bo'lib keladi hamda bog'lovchi vazifasida ishlatiladi: Oza kalmis susin Kul tagin agntьsh, at

I ongara bir og'ush alpagu on arit, Tonga tagin yog'nnta, agirip olurtimiz.

5. Bog'lovchilar orqali. Qadimgi turkiy tilda quyidagi bog'lovchi vazifasidagi va yordamchi so'zlar ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi.) bog'lovchi vazifasidagi anьshg uchun II antaganьsh uchun so'zlari orqali. Buyruqi yama bitiga armis - arinch, baglari yama' tuz armis, ani uchun alig

ancha tutmis arinch.b) bog'lovchi vazifasidagi tayin va uning variantlari orqali. Bunday holda ergash gapnint kesimi buyruq fe'li orqali ifolanadi: Sog'dak bodun atayin tayin, Yinchu oguzug kacha Tamir qapig'ka tagi suladimiz. Ergash gapli gaplarning tiplari 1. Maqsad ergash gapli konstruksiya, Maqsad ergash gap gipotaksis konstruksiyalarni tashkil etgan qismlarning biri ikkinchisidan anglashilgan mazmun nima maqsadda ro'y berishini ifodalaydi va uning variantlari vositasida bosh gapga bog'lanadi. Bu bog'lovchi ergash gapning birinchi yoki uchinchi shaxs formasidagi buyruq fe'li orqali ifodalanagan. Ot kesim bo'lganda esa bulz-yuq bog'lamasini. oladi. Bodunug' igidayin tayin, yʻfg'aru... suladim] (Kt,28).

2. Payt ergash gapli.konstruksiya. Payt ergash gap bosh gapdan anglashilgan mazmunning ro'y berish vaqtini ifodalaydi va bosh gapga o'rin — payt, chiqish kelipshgi formasi orqali bog'lanadi, Bunda ergash gap kesimi sifatdash orqali ifodalanib, ot kesim bo'lmoq bog'lamasini oladi: achim kag'an ali qamshag' boltuqishta, bodun olug' iklig' Izgil bodun birla bormoqdamiz.

3. Sabab ergash gapli konstruksiya.Sabab ergash gapni tashkil etgan gap bosh gapdan anglashilgan harakat —holatning ro'y_{ch} berish sababini ifodalaydi, ergash gapni bosh gapga bog'lashda uchun ko'makchisi xizmat qiladi. Bu holatda ergash gap kesimi sifatdash yoki ot, sifat va bor so'zi orqali ifodalanadi Tangri yarliqadukun, uchun qagan olurtʻsh (Kt,9).

4. SHart ergash gapli konstruksiya, SHart ergash gap ,bosh gapdan anglashilgan mazmun qanday shart— sharoitda ro'y berishini ko'rsatadi va kesimi shart fe'li yoki ot bilan ifodalanadi, YOzma yodgorliklarda bu fe'l har uch shaxs uchun bir xil shaklda qo'llanadi.) kesimi shart fe'li orqali ifodalanagan shart ergash gap: Uza tangri basmasar, asra yar talinmasar, turuq bodun, alingin. torungin kim artatʻg? (Kt, 22).b) kesimi ot orqali ifodalanagan shart ergash gap: Kul tagin yoq arsar, qop oltachi artigiz.

5. Aniqlovchi ergash gapli konstruksiya. YOdnomalarda aniqlovchi ergash gapning maxsus turi uchraydi va bevosita o'zi aniqlab kelayotgan otning oldida qo'llanadi, Bu xil ergash -gaplar bosh gap tarkibiga kiradi, tashqi intonasion tomondan bir gap sifatida o'qiladi: Kangʻshnz achimiz kaz ganmnsh budun atʻ, kusi yoq bolmazun tayin turo'q bodun uchun tun udimadʻsh, kuntuz olurmadim.

6. To'ldiruvchi ergash gapli konstruksiya. To'ldiruvchi ergash: gap bosh gap tarkibidagi olmosh to'ldiruvchi yoki fe'l — kesimning ma'nosini izohlaydi va bosh gap mazmunini to'ldiradi: a) ...nanshang sabʻsh arsar, banggu tashka urtʻsh (KtD1') b) tap, tayin yordamchilari bklan ...bodunum kozi kashm yabdaq boltachm tap saqʻyutʻsh.

Bir iecha ergash gaptsh konstruksiyalar. Qadimgi yodnomalar . Fili .ma'lum darajada shakllangan yozma adabiy til edi. SHuning uchun ham bu yodnomalarda qo'shma gapning turli formalari bir necha ergash gapli qo'shma gaplar, ergash va bog'lovchisiz gaplarni o'z ichiga olgan murakkab sostavli qo'shma gaplar qo'llanadi.

YOdnomalarda bir necha ergash gapli qo'shma gapning har ikki turi (bir tipli va turli tipli) qo'llanadi:

a) Uza tangri basmasar asra yar talinmasar tur}x bodun alining toruning kim arta.ti (Kt, 22) Murakkab tarkibli konstruksiyalar. Tarkibi ham gipotaksis, xam parataksis tipli konstruksiyalardan tuzilgan murakkab sostavli qo'shm^a gaplar uchraydi: Tangri kuch bartuk uchun qangʻsh qag'an susi boritag armis; yag'ʻtsn qonytag armis (Kt, 12)

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar: 1.Otli birikmalarga alohida, fe'lli birikmalarga alohida misollar keltiring.

2.Bitishuv, boshqaruv, moslashuvli birikmalarning o'zaro farqini tushuntirib bering. Z.Matnlardan misollar keltiring

Tayanch iboralar

1.Otli birikmalar.2.Fe'li birikmalar. 3.Bitishuv. 4.Boshqaruv. 5.Moslashuv. 6.Turkiy izofa.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Payt munosabatli parataksis konstrksiylalar.

2. Parataksis konstrksiylalarning tarkibidagi sodda gaplarda voqea—hodisa, belgi —xususiyatlarning o'zaro zidligi va nomuvofiqligini qiyoslash.

3. Bog'lovchili va bog'lovchisiz gipotaksis konstrksiylalar.

4. Maqsad, payt, sabab, ergash gaplarga matndan misollar topint.

5. SHart, aniqlovchi, to'ldiruvchi ergash gaplarga matnlardan misollar topish.

6. Matnlardan bir necha ergash gapli konstrksiylalarni aniqlash.

Tayanch iboralar

1. Qo'shma gaplar.

2. Payt munosabati.

3. Konstrksiylalarda zidlik va qiyoslash.

4. Bog'lovchisiz gshyutaksis konstrksiylalar

5. Ergash gapli konstrksiylalar

6. Sifatdosh orqali bog'lanish

7. SHart fe'll orqali bog'lanish

8. Ravishdosh orqali bog'lanish

9. Bog'lovchilar orqali. bog'lanish